

321.512.133-053.5  
841502616  
0-14



# ANVAR OBIDJON

G'ALATI  
MAKTUBLAR

1-4-SINF

MAKTABDAN TASHQARI O'QISH

Ecuador



G'ALATI  
MAKTUBLAR

# ANVAR OBID.JON

  
YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2017

**UO'K: 821.512.133-1**

**KBK: 84(50')6**

**O - 14**

**Obidjon, Anvar**

G‘alati maktublar: she’rlar. Anvar Obidjon / So‘zboshi muallifi  
Xudoyberdi To‘xtaboyev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.  
– 128 b.

ISBN 978-9943-27-973-5

*Hayotning har lahzasi go‘zal  
Umrning har dami g‘animat...*

Tanish satrlar, a?! O‘tayotgan lahzalarning, fursatlarning  
g‘animatligi, bunday pallalarda esa imkonni qo‘ldan boy bermay,  
o‘qib-izlanishga, hayotda o‘z o‘rnningni topishga undovchi she’rlar  
Anvar Obidjon ijodida ko‘plab uchraydi.

Adib asarlariga tanlangan qahramonlar esa o‘quvchilar uchun  
hamisha ajablanarli, hamisha ularni hayratga solib kelgan. Oltin  
yurakli Avtobola, Meshpolvon, Olovjon, Amazon, Gulmat,  
Qorinbotirlar haqida o‘qiganlar, ularning sarguzashtlariga sherik  
bo‘lgan o‘quvchilarimiz navbatdagi kitobga jamlangan she’rlarni  
intiq kutayotgan bo‘lsalar, ajab emas.

Anvar bobongiz bu gal ham she’rlari orqali Sizga olisdan emas,  
o‘z bolaligidan hikoya qiladi. O‘ylaganlarini, tasavvurlarini topilma-  
qahramonlari misolida gavdalantiradi.

**UO'K: 821.512.133-1**

**KBK: 84(50')6**

So‘zboshi muallifi  
**Xudoyberdi To‘xtaboyev**

ISBN 978-9943-27-973-5

© Anvar Obidjon, “G‘alati maktublar”. “Yangi asr avlodi”,  
2017-yil.

JU ALI IBN SINO N

915.01

## **POLOSONLIK ANVAR OBIDJON**

Salkam ellik yildan buyon “bolalar adabiyoti” deb atalmish poyoni yo‘q dunyoda yashayman. Goh she’riyatda, goh nasrda paydo bo‘ladigan go‘zal asarlarni “yutoqib” o‘qiyan. Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min, Hakim Nazir asarlarini o‘qib, “Xudoga shukr, shunday ijodkorlarimiz bor-a”, deb faxrlanaman. Mark Tven, aka-uka Grimlar, Sharl Perro, Janni Rodari singari jahonshumul yozuvchilarni o‘qiganda esa, ularning o‘ziga xosligi, adabiyotga hech kim aytolmagan gapni aytib kirib kelganligini o‘ylab: “E, Xudo, bizga ham ana shunday yozuvchilardan bersang edi”, deb ich-ichimdan orzu qilgan paytlarim ham ko‘p bo‘lgan.

Ana shunday ijodkorni Alloh bizga polosonlik Anvar Obidjon qiyofasida berganga o‘xshaydi. Ortiqcha baho berib yuboribdi, deb hamkasblar mendan ranjishlari mumkin. Chunki biz hamisha o‘zimizni birinchi hisoblaymiz. Lekin, nima bo‘lganda ham, Polosondagi yumorni, yoqimli qahqahani, nazokatli qochirimlarni butun dunyoga yoyish saodati Anvar Obidjonga nasib etgan. Bu kamtar, sodda, samimi yigitga Yaratgan o‘tkir ko‘z, yaxshi ishlaydigan ikkita qulqoq va katta burun ham bergen ekan. Yaratgan shuning uchun ham Poloson qishlog‘ini tanlagan ekanki, bu yerda yumorning tabiiy holati soddalik va samimiylilik bilan qo‘silib, charaqlab turarkan. Ana shu charaqlab turgan holatni Anvar Obidjon shundayligicha bolalar adabiyotiga ko‘chirib, dunyo bolalariga taqdim eta boshlaganiga ko‘p yillar bo‘lib qoldi.

## **ATALANING LAG'MONGA YOZGAN XATI**

Kampir meni pishirdi  
Erinmasdan atalab.  
Qirmochimni qozondan  
Bolalar yer tatalab.

Sen ham tezroq pishsang-chi,  
Qisqa-qisqa uzilib.  
Ishdan qochgan yalqovdek  
Yotaverma cho'zilib.

## **KO'ZTIKONNING KIRPITIKONGA YOZGAN XATI**

Shirin kurmak Qo'y uchun –  
Ovqatning eng zo'ri-da!  
Qancha satang Quyonlar  
Yemish bo'ldi Bo'riga.

Kallangizga qoyilman,  
Juda dono ekansiz.  
Yashab bo'lar ekanmi  
Shu zamonda tikansiz!

## **KETMONNING TRAKTORGA YOZGAN XATI**

Eplay olsang koshkiydi  
Mening og‘ir ishimni.  
Chidaysan-da,  
Ukajon,  
Tishga qo‘yib tishingni.

Kamchilicing bor, afsus,  
Ko‘nglim uncha emas to‘q.  
Durustgina temirsan,  
Biroq,  
Yog‘och soping yo‘q.

## **QAHRATONNING SARATONGA YOZGAN XATI**

Maslahat shu:  
Ikkimiz –  
Kuchni birga to‘plasak.  
Keyin Kuz va Bahorni  
Oramizdan quvlasak.

O‘rtachalik, iliqlik  
Kimga ham darkor, qiziq!  
Bo‘lish kerak hayotda  
Yo g‘irt sovuq,  
Yo issiq.

## QO'RUNING QUMG'ONGA YOZGAN XATI

Chilopchinxon ikkimiz  
Apoq-chapoq yuribmwiz.  
Uyimiz yo'q,  
Hozircha –  
Ayvonchada turibmwiz.

Goh dahlizga kiritar  
Xo'jayinim  
Sal erib.  
Kelgan mehmon bilan men  
Ko'rishaman qo'l berib.

Kecha  
Uyning ichiga  
Kirib bordim ayvondan.  
Ko'rsam, turar Choynakvoy,  
Burni desang osmonda.

Kuyib-pishib  
O'choqda  
Qaynatasan sen suvni.  
Likopchaga o'tqazib,  
Hurmatlashar u quvni...

Sog' bo'laylik,  
Ishqilib,  
O'tkinchidir bu bari.  
Obdastavoy aytgandek,  
Dunyo o'zi teskari.

## **SO'RG'ICHNING PUFAKKA YOZGAN XATI**

Tengdosh edik,  
Do'konda –  
Yotar edik burishib...  
Yayrayapti go'daklar  
Endi meni so'rishib.

Ko'tarishsa yuqori,  
Buncha quvnab  
Ishasan?  
Ipingdan bir tortishsa,  
Yana pastga tushasan!

## **PO'STINNING AYIQCHAGA YOZGAN XATI**

Omonmisan, do'm bog'im?  
Ehtiyot bo'l o'zingga.  
Juftakni ur,  
Odamlar –  
Ko'rinsayoq ko'zingga.

Taqdiringni o'ylasam,  
Zirqiraydi har tolam.  
Telpak bo'lib  
Yonimga –  
Iljinmagin, jon bolam.

## **SOPOLKOSANING CHINNIKOSAGA YOZGAN XATI**

Seni baland tokchaga  
Terishadi avaylab.  
Tillarangli gulingga  
Termilishar hayhaylab.

Faqat mehmon kelganda  
Asta pastga olishar.  
So'ng tagingga yap-yangi  
Dasturxonni solishar.

Hayratlanmas odamlar  
Meni qo'lga qo'ndirib.  
Suyunmaslar but deya,  
Kuyunmaslar sindirib.

## **KO'ZGUNING OYNAKKA YOZGAN XATI**

Izlab topgan ulfating  
Laganbardor deraza.  
Sen ham unga qo'shilib,  
Bo'lib ketding bemaza.

Dangal boqib doimo  
O'zgalarning ko'ziga,  
Afti qanday ekanin  
Aytish kerak yuziga.

## **VARRAKNING SAMOLYOTGA YOZGAN XATI**

Ishlar qalay,  
Qarindosh,  
Bilvoldingmi uchishni?  
Uchgan chog'da o'ylab yur  
Yerga omon tushishni.

Eng muhimi,  
Havoda –  
Bir xil ushla posangni...  
Kelib mendan so'rayver  
Tushunmagan narsangni.

## **PECHKANING O'CHOQQA YOZGAN XATI**

Uy ichida hozircha  
Yo'qdir muhim yangilik.  
Faqtgina  
Ko'mirdan  
Sezayapman sal tanglik.

Gohi mo'rim tiqilsa,  
Tutoqaman armonda...  
Mundoq xat-pat yozib tur,  
Xo'sh,  
Nima gap ayvonda?

## **ESHIKNING DARVOZAGA YOZGAN XATI**

Mendan o'tar ba'zilar  
Etigini artmasdan.  
So'ng  
Tepalar to'shakni  
Hech xijolat tortmasdan.

Sen anqovga ishonmay  
O'zim turardim sergak.  
Afsuski,  
Men sho'rlikda  
Na qulf bor, na ilgak.

Hushyorroq bo'l,  
Gohida –  
Ishlatib tur tambani.  
Pokiza bu hovliga  
Qo'yaverma hammani.

## **QUTICHANING SANDIQQA YOZGAN XATI**

Assalomu alaykum,  
Mehribonim boydadam.  
Kecha meni bozordan  
Sotib oldi bir odam.

Endi yayrab yotibman  
Ko'milib qand-pistaga...  
Urib-turtgan bo'lsa ham,  
Rahmat qari ustaga.

## **UVADANING PAXTAGA YOZGAN XATI**

Sendek lo'ppi Paxta edim  
Bir paytlar Quvada.  
To'n ichida ezg'ilanib,  
Oxir bo'ldim  
Uvada.

Oftob joyda jim yotibman,  
Nurdan ko'zim qamashib.  
Boshqa to'nga tiqisharmish  
Yumshatishib,  
Savashib.

## **SHAMNING LAMPOCHKAGA YOZGAN XATI**

Qorong'ilik – dushmanim,  
Uni haydab  
Qonaman.  
Qancha quyuq bo'lsa tun,  
Shuncha porlab yonaman.

Men o'lyapman,  
Ukajon,  
Oq qonimga qorilib.  
Sen ham yetmay orzuga,  
Ketmasayding yorilib.

## **GUGURTNING CHAQMOQQA YOZGAN XATI**

To‘p otasan “qarsa-qurs!”  
Sendan zo‘rroq vahma yo‘q.  
O‘pkangni bos,  
Do‘qingdan –  
Qo‘rqadigan laqma yo‘q.

Zap bilvolgan ekansan  
Quruq chaqmoq chaqishni.  
Hech bo‘lmasa  
O‘rgan-da  
Tandir-pandir yoqishni.

## **QAZINING KOLBASAGA YOZGAN XATI**

Ishlarim “besh”,  
Vaqtim chog‘,  
Yuribman to‘y-to‘ychiqda.  
Uchrashib ham qolarmiz  
Marg‘ilon yo Chirchiqda.

Seni so‘rab turadi  
Gohida akam Hasib...  
Salomat bo‘l,  
Do‘stginam,  
Bemahal qolma sasib.

## **QAYROQNING EGOVGA YOZGAN XATI**

Arra senda charxlanib,  
Daraxtlarni qulatar.  
Men qayragan  
Oshpichoq  
Sabzavotni qiyratar.

Ishqab qo'yib yotlarni,  
To'polondan yur nari.  
Ular  
Qilgan ishiga  
Javob berar o'zları.

## **QALAMNING RUCHKAGA YOZGAN XATI**

Kecha oldim,  
Jiyancham,  
Yig'lab yozgan xatingni.  
Aytmasang ham bo'lardi  
Oldi-qochdi dardingni.

Mendan ahvol so'rabsan,  
Yozsam ekan nima deb?  
Xullas,  
Ishlab yuribman,  
O'z etimni o'zim yeb.

## **KAMONNING ZAMBARAKKA YOZGAN XATI**

Zax muzeyda yotibman,  
Qilmishimdan uyalib.  
Sen yuribsan  
Qaydadir  
Hanuz qonga bo'yalib.

Rostin aytsam, yolg'izlik –  
Tegib ketdi jonimga.  
Zo'r bo'lardi  
Seni ham  
Opkelishsa yonimga.

## **QAYCHINING PICOHQQA YOZGAN XATI**

G'iybatchilar to'dasi  
Meni ochko'z deyishar.  
Lekin  
Ular o'zлari  
Mendan ko'proq yeyishar.

Yashash kerak, oshnajon,  
Yo'q, nafsimni tiymayman.  
...Qo'rqlma,  
Kasbimiz boshqa,  
Rizqingni hech qiymayman.

## **KIRSOVUNNING ATIRSOVUNGA YOZGAN XATI**

Yuvishadi  
Men bilan  
Sochiq, choyshab, dasturxon,  
Salla, ro'mol, darparda,  
Yaktak, belbog' va ishton.

Aytaversam birma-bir,  
E, ta'rifi ja uzun...  
Senda yuvar  
Odamlar  
Faqatgina qo'l-yuzin.

Lekin ortiq taltayma,  
Ko'p quvonma qadringga.  
Ishqibozdir odamlar  
O'zinggamas,  
Atringga.

## **QAYIQNING KEMAGA YOZGAN XATI**

Baliq ovlab  
Necha yil,  
Eshkagimni eshdilar.  
Oxir toshga urishib,  
Biqinimni teshdilar.

Shu ahvolda,  
O'ylagin,  
Borib bo'lar qayoqqa?  
Yo'qlab eski do'stingni,  
Bir kelsang-chi buyoqqa.  
Balki  
Ko'ngling yozilar  
Yer, o'tloqni kuzatib.  
Yuraverma dengizda  
Tamakini tutatib.  
Foydang tegib turganda  
"Hay-hay"lashar xizmating.  
Ishdan chiqsang,  
Bilib qo'y,  
Mendek bo'lar qismating!

## VATAN ISHQI

Kamol topmas hech bir millat,  
Qadrin baland asrolmasa.  
O'z yurtini pok ko'rpam deb,  
Burgalardan saqlolmasa.

Bolam, asli Vatan ishqı  
Eng qudratlı yarog' bizga.  
Bu yurtdagi har uy – qal'a,  
Har bir terak – bayroq bizga!

## TO'TINING TALABALARI

To'tiqushga yalinishdi  
Qarg'a, Cho'chqa, It, Mayna:  
– Odamlardek gapishtchi  
Bizga ham o'rgat, oshna.  
To'ti dedi:  
– Men roziman,  
Mushkul ishdir bu garchi.  
Qani, aziz talabalar,  
"Ar-r-rabaliq" denglar-chi.  
Qarg'a dedi:  
– Qar-r-rabaliq!  
"Ir-r-rabaliq" dedi It.  
"Xur-r-rabaliq" dedi Cho'chqa,  
Mayna dedi:  
– Vit-vit-vit...

## XABAR SOTUVCHI

Yangi gaplar sotaman,  
Eski gaplar ham.  
Bolajonlar, kepqoling,  
Qoldi juda kam.

Surishtirmang narxini,  
Arzondan arzon.  
Xo'rozqandga – rost xabar,  
Bodroqqa – yolg'on.

Almashaman yangisin  
Kepaksiz unga.  
Eski gapni – puch yong'oq,  
Yoki sovunga...

Bugun tongda eshitdim  
Eng yangi xabar:  
Yeb qo'ygan mish tushida  
Bur gutni Kaptar.

Quyon yo'l bars po'stinin  
Yopinib yurib,  
Hushdan ketdi, ko'zguda –  
O'z aksin ko'rib.

O'tgan kuni Tulkivoy  
Opkelib xo'roz,  
Hiringladi Bo'riga  
Taltayib biroz.

Bo'ri esa xush ko'rmas  
Hazil, kulgini.

Avval yedi xo'rozni,  
So'ngra Tulkini.

"Savodsiz", deb Ayiqnি  
Qilgan mish ermak –  
Uch yil bitta sinfda  
O'qigan Eshak.

Kecha Arslon do'xtirga  
Arz qildi Tuya,  
Qimmatbahо terimga  
Tushdi deb kuya.

Do'xtir uning arziga  
Soldi-yu quloq,  
Shilib olib terini,  
Tekshirdi uzoq.

Bugun tog'da uchratdim  
Ochko'z To'ng'izni.  
Yamlagan mish u birdan  
Besh ming qo'ng'izni.

Kirpi borib bozorga,  
Olgan mish igna...  
Qiziqsangiz, yangi gap –  
Topilar yana.

Bolajonlar, kepqoling,  
Xilma-xil xabar!  
Uni sotib olganlar  
Ko'rmaydi zarar.

## BIRINCHI MAQTOV

– Ko‘rinxaysan, Mamajon?  
– O‘qiyapman, ammajon.  
– O‘qishlaring durustdir?  
– “Balli!” – dedi direktor.  
– Nega “balli” dedi u?  
– Shoshib kelar edi u,  
Men darrov yo‘l bo‘shatib,  
Salom berdim o‘xshatib!

## O‘ZIMNIKINI AYT MAYMAN

Yong‘oq qoqvoldim,  
Mag‘zini chaqvoldim.  
Yurakni qildim keng,  
Hammaga bo‘ldim “teng”:  
Dadamga – sakkizta,  
Ayamga – to‘qqizta,  
Ukamga – to‘rt-beshta,  
O‘zimga...  
Bir nechta.

## G‘ALLACHINING NEVARASI

Bug‘doydan bo‘lar  
No‘xatli shirmon,  
Norin, shilpildoq,  
Manti-yu lag‘mon.

Tinch bo‘lsin olam,  
Bor bo‘lsin dehqon.  
To‘xtab qolmasin  
Hech bir tegirmon.

## **BODRINGLAR**

Boqsang ko'zing qamashar,  
Bargda yonar shudringlar.  
Dildirashib uxlashar  
To'lpoq-to'lpoq bodringlar.

Palaklarni titkilab,  
Tongda bodring uzdik biz.  
To'lpoqlarni turtkilab,  
Eh, uyqusin buzdik biz.

## **MIRSHARIF BEKORCHI**

Farhod cho'milar,  
Suvga ko'milar.  
Tilini chiqarib,  
Ermaklar Mirsharif:  
“Farhod – paraxod.  
Farhod – paraxod!”

Ter to'kib sharros,  
Suv tashir Parvoz.  
Tilini chiqarib,  
Ermaklar Mirsharif:  
“Parvoz – paravoz,  
Parvoz – paravoz!..”

## **OSMONDAN TUSHGAN SOZANDA**

Ko'rganmisiz  
Turli sozni  
Chala olgan mashshoqlarni?  
Men barglardan chang yasayman,  
Dutor qilib boshoqlarni.

Goh uraman chirmandani  
Tomingizni tiriqlatib.  
Tomchilarni o'ynataman,  
Ko'lmaklarda  
Diriklatib.

Lol qolasiz  
Qiyoqlardan  
O'zim g'ijjak yasab olsam.  
Uzun-uzun zinalarni  
Pianino qilib chalsam.

Meni oddiy yomg'ir deysiz,  
Bilmaysizki – sozandaman.  
Sozandani sevar hamma,  
Shuning uchun  
Arzandaman.

## JALIL JANJALCHI

Ko'zlarini chaqchaytirib,  
Burchakda poylab turadi.  
Eng uyatli so'kishlarin  
Og'ziga joylab turadi.

Birdaniga tirmashadi,  
Biqiningga qorin tirab.  
Qitig'ingni qo'zg'atadi,  
Qulog'ingga burun tirab.

Kuchi yetsa, yiqitvolib –  
Bir savalab turib ketar.  
To'palonda cho'ntagingdan  
Konfetniyam urib ketar.

Zo'rroq kelsang, yerga yotib –  
Oyog'ingdan ushlashi bor.  
Boybolaning kuchugidek  
Boldiringdan tishlashi bor.

So'ng uyingga yarim tunda  
Kesak otib garang qilar.  
Tunuka tom chirmandadek  
Timmay "darang-darang" qilar.

Do'stsiz yashab yuribdi u,  
Hamma uchun "birov" bo'lib.  
Kuchsizlarga xo'rozlanib,  
Kuchlilarga egov bo'lib.

## **DOVDIRVOY**

Kenja ukam Bahodir –  
Shoshma-shoshar, g'irt dovdir.  
Yurar bo'lsa kalishda,  
Bir poy doim alish-da.  
Dadamniki do'ppisi,  
Singlimniki guppisi,  
Bobomniki belbog'i,  
Qatida – nosqovog'i.  
Ko'k ko'y lagi meniki...  
Iy, ishtoni kimniki?  
O'rtancha ukam Eshjon –  
Qolibdi-da beishton!

## **ONA YER**

Raketamda g'izillab,  
Parvoz qildim men Oyga.  
Insonlar yuz ming yillab  
Orzu qilishgan joyga.

Keyin o'tdim Saturn,  
Mars hamda Yupiterga.  
O'xshatmadim hech birin  
Baxt bergen ona Yerga!

## PO'STAK ARAVA

Po'stagin sudrar  
Momoguldirak.  
Po'stagida bor  
Yuzta g'ildirak.

O'ydim-chuqur yo'l,  
Yo'qdir adog'i.  
G'ildiraklarning  
Chiqar shalog'i.

Bulut yo'laklar  
Juda qorong'i.  
Po'stak arava  
Yoqar chirog'in.

Chiroq ham buzuq,  
O't chiqar "chars-churs".  
G'ildirak o'qi  
Yorilar "qars-qurs".

Ta'mirni boshlar  
Momoguldirak.  
Bir-bir moylanar  
Yuzta g'ildirak.

Chelak-chelaklab  
Socha boshlar moy...  
Yomg'ir suviga  
To'lar endi soy.

## QO'SHTRAMVAY

Bir-birovga tirmashib,  
Go'yo qo'llar chirmashib,  
Qo'shtramvay ketyapti,  
Quvnoq qo'shiq aytyapti:

– Taqa-tuq taq...

– Taka-tuk tak...

Oldindagi – Hasanboy,  
Ortdagisi – Husanboy.

To'silsa goh yo'lakcha,  
Tovushlari bo'lakcha:

– Jing-jing-jing!

– Ting-ting-ting!

Hasan-Husan shu kuyi,  
Shahar kezar kun bo'yi.  
Uyga charchab qaytishar,  
Toshdek qotib,  
Uxlab yotib,  
Tushida qo'shiq aytishar:

– Taqa-tuq taq...

– Taka-tuk tak...

– Jing-jing-jing...

– Ting-ting-ting...

## ERTAKLAR

Ertagi bor millat dengizdir,  
Ertagi yo'q millat – bir ko'lmak.  
Ertak asli – hammabop tarix,  
Egizakdir o'tmish va ertak.

Ertaklarda berkinib yotar  
Elatning eng ezgu o'ylari.  
Bu ertakda – xalqning azasi,  
U ertakda – bazm-u to'ylari.

Umidsizlar ertak tinglab goh,  
Yaxshi kunga umidin bog'lar.  
Bir ertakka donolar loldir,  
Bir ertakdan qo'rqedir shohlar.  
Ertaklarda go'zallik, mardlik  
Va haqiqat hamisha g'olib.  
Ne yomonlik borki olamda,  
Bo'laverar birma-bir mag'lub.

Ertaklardan uqar avlodlar  
Kurashmoqni, g'ururni, orni.  
Bundan odil xulosa shuki,  
Ertasi bor ertagi borning.

To qutlug'dir Go'ro'g'li o'tgan  
Bog'-u tog', cho'l,  
Gulzor, qir, dala;  
Berib qo'ymas ularni yovga  
Ertak tinglab ulg'aygan bola.

## **AKA-UKALAR**

Tug‘ilganmiz chodirda,  
Cho‘pon bizning otamiz.  
Ukam Mashrab ikkimiz  
Doim birga yotamiz.

Qo‘ylarimiz behisob,  
Shum echkimiz bor yakka.  
U ko‘pincha biz uchun  
Bardosh berar kaltakka.

Chunki, ba’zan ayamiz  
Chiqarmasa hech yoqqa;  
Bo‘shatvorib echkini,  
Quvalaymiz o‘tloqqa.  
Adirlarda, jarlarda  
O‘ynab-o‘ynab qaytamiz.  
So‘ngra “Qochqoq echkini –  
Tutvoldik”, deb aytamiz.

Shunda jahli tez ayam  
Indamaydi hech kimga.  
Faqat, picha gap tegar  
Gunohi yo‘q echkimga.

## **MUZBALDOQLAR**

Turar goho osilib  
Tomda – tarnov og‘zida.  
Novdalarning shoxiga  
Pilik taqar gohida.

Tom chetida – “muzburun”,  
Tol shoxida – “muzbaldoq”...  
Qush-u hayvonlar uchun  
Bular balki muzqaymoq.

## **YAXSHI QIZ**

Yashil rangli ro‘molcham  
Kirlab qolibdi biram.  
Ozgina suv qaynatay –  
Ro‘mol bo‘lsin oynaday.

Kir qilay-u men doim,  
Yuvib bersinmi oyim.  
Yo‘q, qilmayman ovora,  
Qani sovun, tog‘ora?

## **SUYUNCHI BERING, OYI**

– Xafa bo‘ldingiz picha,  
“Bir” olib qaytsam kecha.  
Bugun men “ikki” oldim,  
A’lochi bo‘lib qoldim.

## SAXIY LOLALAR

Birgalashib uch o'rtoq –  
Men, Aziza va Qo'shoq,  
Keng lolazor qo'ynida  
O'ynardik bekinmachoq.

Bekinmoqchi bo'lsam men,  
Har lola imlab sekin –  
Deydi: "Kelaqol, o'g'lon,  
Mening ortimga bekin".

## MAYMOQ

Bilaman, qo'ng'ir ayiq,  
Nega oyog'ing maymoq.  
Chunki o'sding o'rmonda  
Bebotinka, bepaypoq,  
Shunga oyog'ing maymoq.

Vaqting bekor o'tkazma,  
Tentirab yurma sayoq.  
Botinka tik qunt bilan,  
Bolangga to'qi paypoq,  
U ham bo'lmasin maymoq.

## HARBIY LISEYCHILAR

O'smirlikka yetmay hali,  
Safga turdik, to'ldik biz.  
Akamizdan ham oldinroq,  
Askar bola bo'ldik biz.

Harbiy libos – faxriy libos,  
Ko'r kamdirki shunchalar;  
Yo'ldan o'tsak, gullar sochar  
Olqishlashib qizchalar.

Oy-yulduzlar chaqnab turgan  
Bayroq tushmas qo'llardan.  
Bormoqdamiz Alpomishlar  
O'tgan qutlug' yo'llardan.

Bizlar – botir,  
Bizlar – asov.  
Duch kelganda  
Har qanday g'ov,  
Tulpor bo'lib sakraymiz.  
Daryo, bog'ni,  
Cho'l-u tog'ni,  
Har bir gulni,  
Aziz elni  
Yomon ko'zdan asraymiz!

## **UCHKO'Z CHIROQ**

Duch keladi to'rtko'chada  
Svetofor – uchko'z chiroq.  
Ko'zlarini charaqlatib,  
Hammaga u berar saboq:

Qizil yonsa, qimirlamang,  
Sariq yonsa, sabr qiling.  
Yashil yonsa, yaxshi boring,  
Istagancha sayr qiling.

## **OYMOMONI O'G'IRLASH**

Paxmoq qora bulutchcha –  
Qaroqchilar kemasi.  
Oymomoni o'g'irlab  
Qochmoqchi u,  
Chamasi.

Suzib yurar kemacha,  
Yelkanlari hilpirab.  
Xayriyatki,  
Oy undan  
Tushib qoldi g'ildirab.

## ATINA PATINA TATUNA

Deydi ukam Boyxo'roz:

– Atina patina tatuna.

Bilgan gapi shu xolos:

– Atina patina tatuna.

Biryarimga kirsa ham,

Chopib-chopib yursa ham,

So'rар, itni ko'rsa ham:

– Atina patina tatuna?

Bersak gilos, olma yo,

Ta'zim qilar avvalo,

So'ngra "rahmat" der go'yo:

– Atina patina tatu-u-na.

Loy kechishni xush ko'rар,

Chayib, zavqi jo'sh urar,

"Hoy, chiq!" – desak, o'shqirar:

– Atina! Patina! Tatuna!

Ko'cha kezib charchasa,

Qorni rosa ochqasa,

Tutar oyimga kosa:

– Atina patina tatuna-a.

Uyqu bossa, mo'ltirar,

Belanchakni to'ldirar,

Tushida ham g'o'ldirar:

– At-tina...

Pat-tina...

Tat-tuv-na...

## TO'TI NEGA QAYSAR?

Oshnam bor, ismi – Mo‘tti,  
Boqvolgan u bir to‘ti.  
Mo‘tti – azaldan qaysar,  
Qushi – undan besh battar.  
“Jim bo‘l, hey!” desa Mo‘tti,  
“Shang‘illama!” der to‘ti.

Ikkalasi bir-birin  
Salga mazax qiladi.  
Biri xafa bo‘lganda,  
Biri yayrab kuladi.  
“Qafas tor!” desa to‘ti,  
“Qisilib o‘l!” der Mo‘tti.

Nafsi buzuq bolakay  
Yeb aralash-quralash,  
Ichburug‘dan qiyalar,  
Isitmadan bosh otash.  
“Voy, qornim!” desa Mo‘tti,  
“E, battar bo‘l!” der to‘ti.

Bir kuni och kalamush  
Paydo bo‘ldi xonada.  
Qush qafasda qaltirar,  
Bola yotar panada.  
“He, qochqoq!” desa to‘ti,  
“Qo‘rqqoq! Qo‘rqqoq!” der Mo‘tti.

Ag‘nab velosipeddan,  
Bo‘ldi Mo‘ttivoy mayib.  
Yotar, ana, inqillab,  
To‘ti boqar tirjayib.  
Shirinso‘z bo‘lsa Mo‘tti,  
Qaysar bo‘lmasdi to‘ti.

## **MISHAVOY OSHNAM**

Oyisini "mama" deydi,  
Dadasini "papa" deydi.  
Ko'proq kasha bermasangiz,  
Bo'pqolaman xafa, deydi.

## **OCHQAGAN HAYDOVCHI**

Furqat terga botgancha,  
Aravani tortadi.  
Aravacha ichida  
Fotima jim yotadi.

Oyisiga qichqirar  
Och Furqatvoy betoqat:  
– Uyg'onguncha yo'lovchi,  
Yeb olay ovqat-povqat!

## **TILOV BOBO**

Tumov bo'lsa Tilov bobo,  
Hamma bola qilar duo:  
– Tilov ota, o'lmay yuring,  
Endi kasal bo'lmay yuring.  
Yozda yana tarvuz eking,  
Chekkasiga chayla tiking.  
To'ningizni to'shab yoting,  
Uxlaganga o'xshab yoting.  
Hech qaramang chug'urlasak,  
Bitta tarvuz o'g'irlasak.

## TEMIRTANLAR MASKANI

Temirtanlar maskanin  
Quribdi yosh Temirjon.  
Mo'jizaki, bundayni  
Ko'rmagandim hech qachon.  
"Qishloqcha"ga kiriboq,  
Bo'lib qoldim juda lol.  
Bir sho'x avtobolani  
Koyir edi avtochol:  
"Shoshmay turgin,  
Hammasin  
Aytay avtodadangga.  
Qachon aql kiradi  
Qovoq avtokallangga?"  
Surishtirsam sababin,  
Haddan oshib bu bevosh,  
Cholning avtotovug'in  
Cho'loq qipti, otib tosh.  
Sal narida uchratdim  
Qo'rqoq avtomushukni.  
Xushomad-la moylar u,  
Eski avtokuchukni.  
Avtomoldan sut sog'ar  
Avtokampir chelaklab.  
Avtoovchi dasht kezar,  
Avtoitni yetaklab.  
Ustaxona ochibdi  
Guzarda bir avtoot.  
Avtoqo'y der:  
"Menga ham  
Dum yasab ber shu zahot".  
Avtoxachir – navbatda,

Bo'yatarmish u yolin.  
Avtoechki, chamasi,  
Almashtirar soqolin.  
Avtosichqon chiyillar,  
Tishi o'tmay turshakka.  
Avtoho'kiz so'z qotar  
Qari avtoeshakka:  
– Ko'rindimi yaylovda  
Mening avtobuzog'im?  
– Qattiq gapir,  
Uch yilki,  
Zanglab qolgan qulog'im.  
Avtoari chaqdi, deb,  
Avtoqizcha yig'lar ho'ng.  
Shisha ko'zin o'ynatib,  
Avtoqarg'a titar go'ng.  
...Bolakaylar, kechiring,  
Aytolmayman u yog'in.  
Chunki,  
Avtoruchkamning  
Tugab qoldi siyohi.

## **RAQIB HUJUMCHISI**

Darvozabon Abdulaziz  
Azal juda-juda xasis.  
Ana, hisob hanuz nol-nol,  
O'tkazmadi bittayam gol.

## TABIAT QOROVULI

Yurar keksa sehrgar  
Chakalakni oralab.  
Har pana, har kovakka  
Boqar bir-bir mo'ralab.  
Ana, asalarilar  
Chiqli uydan ko'chishib.  
"Achrom-achom" o'ynashar,  
Chechaklarni quchishib.  
Har bir shona ustida  
Uchishadi hayinchak.  
Changlanmasa bu gullar,  
Meva tugmas maymanchak.

\* \* \*

Mannunlanib sehrgar,  
Davom etar yo'lida.  
Salom berib o'tishar  
Qushlar o'ng-u so'lidan.  
Bu qushlarning esi ko'p,  
Yomonlarga qasdlashar.  
Kemiruvchi qurtlardan  
O't-daraxtni asrashar.  
Qo'ng'iz esa go'ng ko'mar  
O'simliklar poyiga.  
Tabiatga g'amxo'rlik  
Uning uchun qoida.  
E'zozlaydi doimo  
Har giyoh, har butani.  
Agar shunday qilmasa,  
Xarob bo'lar Vatani.

\* \* \*

Maysazorda sehrgar  
To'xtab, asta egilar.  
Surnaysimon durbindan  
Yer ostiga tikilar.  
Chuvalchanglar g'imirlab,  
Tolmas mehnat jangidan.  
Yer bo'lsin deb unumdor,  
Shudgorlashar tagidan.  
Pokdillardan quvonib,  
Deya: "Ishdan qoldirmay";  
Chol bariga baxt, sog'lik  
Tashlab o'tar bildirmay.

\* \* \*

Sehrgarning yo'lida  
Uchradi so'ng moviy ko'l.  
Suvi tanga shifodir,  
Zarur ma'dan mo'ldan-mo'l.  
Qoplon, Tulki, Kiyiklar  
Qatorlashib kelishar.  
Chaqaloqdek yayrashib,  
Zilol suvni emishar.  
Tuyqus shatmoq bir To'ng'iz  
Chopib keldi qirg'oqqa.  
O'zin ko'lga tashladi,  
Boqmay u yoq bu yoqqa.  
Toza suvni bir zumda  
Loyqalatib kir qildi.  
Changab turgan Ayiqning  
Hafsalasin pir qildi.  
Sehrgarning bu holdan  
Tutdi yurak sanchig'i.

Suvdan tortib To'ng'izni,  
Boqdi qaynab achchig'i.  
"Kuf! Suf!" deb dam urgach u,  
Yuz berdi bir qiziq ish.  
To'ng'izvoyning og'zidan  
O'sib chiqdi ikki tish.  
Chol der:  
– Senga rizq bergan  
Mo'jizani xo'rlama!  
Yaxshilarga bundan so'ng  
Sira yaqin yo'lama.  
Endi qoziq tishlarni  
Yerga suqib jiq-jiqqa;  
Hovuz qazib o'zingga,  
Yumalayver balchiqqa.  
"Tavba qildim!" deb To'ng'iz,  
Ko'zlarini yoshladi.  
Parvo qilmay sehrgar,  
Nari keta boshladi.

\* \* \*

Ko'p yurmasdan, lol bo'lib,  
To'xtab qoldi yana chol.  
"Qutqaringlar meni!" deb,  
Dod solardi bir nihol.  
Qarang, esi past Quyon  
Bilmay rahm-shafqatni;  
"Kirt-kirt" g'ajib turardi  
Mitti qayin ko'chatni.  
– Hey, kallasi aynigan,  
To'xta! – dedi sehrgar.  
– Ne bo'lardi po'stingni  
Shunday shilsa o'zgalar?  
Jirilladi sur Quyon:

– Ko‘p g‘ingshimang, oqsoqol.  
Biror marta qorinni  
To‘ydiray sal bermalol.  
“Kuf! Suf!” dedi sehrgar,  
Burushgancha yuzlari.  
G‘ilaylandi shu zahot  
Qo‘rs Quyonning ko‘zlari.

\* \* \*

Chol ko‘rsaki, keng yaylov  
Hayvonlarga go‘yo to‘y.  
Halal bermay hech kimga,  
O‘tlar yuzlab Echki, Qo‘y.  
Lekin ovsar oq Eshak,  
Tentakligin qo‘zitib;  
Chopar suruv yonida,  
Tuproqlarni to‘zitib.  
Bundaylarning boshida  
Singanmi “aql javoni”?  
Goh tutun, goh chang bilan  
Zaharlashar havoni.  
“Voy-voy” latib sehrgar,  
Cho‘zdi Eshak qulog‘in.  
Shal pang qildi bir umr  
Uni og‘ir gunohi...

\* \* \*

Tugatishdan ilgari  
She’rga solgan so‘zimni,  
Ogoh etib qo‘yayin  
Hamma mitti do‘stimni.  
Bo‘ling juda ehtiyot,  
Boshga solmang xavf-xatar.

Endi qishloq-shaharda  
Yurganmish u sehrgar.  
Tabiatga zulm aylab,  
Qo'liga tushsa qay bola;  
Kichraytirib chap ko'zin,  
O'ngin qilarmish ola.  
So'ng mazaxlar kimdir goh,  
Gohi itlar tashlanar.  
Ha, ikki xil ko'z bilan  
Yashash qiyin, oshnalar...

Bo'ling jud-da ehtiyot!

## OG'A-INI JANOBALAR

Janob Toshvoy o'n bir yoshda,  
Shu hovlida to'ng'ich o'g'il.  
Ukasi bor – janob Eshvoy,  
Ikkov tinmay "ishlar" nuql.

Janob Toshvoy molxonaga  
Gilos ekip "chorbog" qildi.  
Janob Eshvoy yulib uni,  
Qo'y haydashga tayoq qildi.

Janob Toshvoy tovuqlarga  
"Katak" qilib, handaq qazdi.  
Janob Eshvoy uni ko'mib,  
"Tovuqmozor" deya yozdi.

Janob Toshvoy ko'rpa osdi  
Yomg'ir yuvsin g'uborin, deb.  
Janob Eshvoy tappi yopdi,

Qursin latta devoring, deb.  
Janob Toshvoy g‘ishtlar quydi,  
Toptab sabzi ungan joyni.  
Janob Eshvoy g‘isht o‘ssin deb,  
Shu tomonga burdi soyni.

Janob Toshvoy molni minib,  
Qaytar eshak o‘tlatgancha.  
Janob Eshvoy eshik bo‘yar,  
Tagin kavlab qulatgancha.

Kamon yasab janob Toshvoy,  
Nosqovoqni nishon qildi.  
Janob Eshvoy musallasli  
Shishani toshbo‘ron qildi...

Ana, qamchi ushlab ota,  
Javrab quvib borar qirga.  
Ilk bor boshi qovushgancha,  
Ikki janob qochar birga.

## QIZ YO‘Q UY

Havo judayam dam bo‘ldi,  
Soyada bolalar jam bo‘ldi.  
Ayron qilib berishga  
Bitta qizaloq kam bo‘ldi.

## KICHKINTOY ALPOMISH

- Chanqab qolsang buloq bo‘lay,  
Ochqab qolsang qaymoq bo‘lay.  
Kel, Barchinoy, yelkamga min,  
Charchab qolsang toychoq bo‘lay.
- O‘tib ko‘rdim u yog‘ingdan,  
O‘tib ko‘rdim bu yog‘ingdan.  
Sen Alpomish toychoq esang,  
Taqang qani tuyog‘ingda?
- Toychoq‘ingga boqib qo‘ygin,  
Ko‘zmunchog‘ing taqib qo‘ygin.  
Tillarang oybaldog‘igni,  
Tuyog‘imga qoqib qo‘ygin.
- Baldog‘imni taqa qilsam,  
Dilim og‘rir xafa qilsam.  
Yig‘lama mix qoqqanimda,  
Tuyog‘igni chaqa qilsam.
- Tuyog‘imga mixlar o‘tmas,  
Ko‘kragimga o‘qlar o‘tmas.  
Gar tabibim bo‘lmasang sen,  
Yurakdag'i yaram bitmas.
- Daraxt o‘sib zarang bo‘lar,  
Po‘stloqlari tarang bo‘lar.  
O‘zing kichik ko‘chatsan-u,  
Dilda nechuk yarang bo‘lar?
- Ko‘chat edim karaxt bo‘lib,  
Sen uchrading bir baxt bo‘lib.  
Qoshingda qiyg‘os gulladim,  
Shu yoshimda daraxt bo‘lib.

## **VOY, UKACHAM-EY!**

Qarg'a qag'illaydi,  
Mayna chag'illaydi.  
Pishlog'idan tishlasam,  
Ukam vag'illaydi.

Buloq biqirlaydi,  
Soat chiqirlaydi.  
Qaymog'imdan yalatsam,  
Ukam qiqirlaydi.

## **FERMERNING O'G'ILCHASI**

Bohusanning koptogini  
Tikon teshib, bujmoq qildi.  
“O'g'lim, nega xafaroqsan?” –  
Deb dadasi so'roq qildi.  
Bu gapdan so'ng Boyhusanning  
Yig'isi sal qo'zib qoldi:  
– Qo'yimizga o'xshab to'pim  
Kasal bo'lib, ozib qoldi.

## QUVNOQ CHOL

Nor qaytardi daladan,  
O't bog'lamin orqalab.  
Ustida bir chol bilan  
Eshak keldi yo'rg'alab.

Soqol silab dedi chol:  
– Ishlar qalay, sher bola?  
Eshagimga ajriqdan  
Ozgina qarz ber, bola.

Qarzga bo'lsa, mayli, deb,  
O't berdi Nor bir quchoq.  
Eshak uni yeb bo'lib,  
Hangray ketdi vaqtি choq.

“Rahmat, omon bo'l”, deya  
Chol mo'ylovin buradi.  
“Qarzni qachon uzasiz?” –  
Deb Nor undan so'radi.

“Xo'sh, men ajriq yedimmi?” –  
Dedi-yu chol, go'laydi.  
“O'tni yedi eshagim,  
Qarzni o'zi to'laydi”.

Diqqat bilan tikildi  
Quvnoq cholga Nor tanti.  
So'ng qichqirdi:  
– Tanidim!  
Siz – Nasriddin afandi!

## **SHAMOL KUYLAMOQDA...**

Kir yoyilgan dor – dutor,  
Kuylar shamol gohida:  
Yap-yangi oq ko‘ylaklar  
Va yirtiq shim haqida.

Shamol kezar kent bo‘ylab,  
Kuylar daraxt shoxida:  
Zotdor erka laychalar  
Va daydi it haqida.

Kuylar shamol guvlanib  
Dengiz jo‘shğan chog‘ida:  
Meshqorin to‘q kitlar-u,  
Och baliqcha haqida.

Shamol kuylar Yer uzra –  
Dala, sahro, tog‘ida:  
Jonajon Farg‘ona-yu,  
Yot o‘lkalar haqida.

## ODAM BO'LAMAN!

– Kezaman ko'p joylarni  
Moy tomchigan kiyimda.  
Ba'zan kitob titkilab,  
Dam olaman uyimda,  
Men shofyor bo'laman, dada.  
– Mayli...

– Hayinchakda akamdan  
Ancha baland uchaman.  
Katta bo'lsam, yaxshisi –  
Borib oyni quchaman,  
Men fazogir bo'laman, dada.  
– Ixtiyor...

– Chalg'itaman maydonda  
Bolalarning ko'pini.  
Kecha bitta tepishda  
Teshdim Norning to'pini,  
Men futbolchi bo'laman, dada.  
– Hm-m... Urinib ko'r-chi...

– Kesvolibdi barmog'in  
O'tgan kuni Mira'zam.  
Qotib qoldi yarasi  
Jindekkina tuz sepsam,  
Men do'xtir bo'laman, dada.  
– Yomonmas...

– Tag'in o'ylab ko'raman,  
Hammasi ham yaxshi ish.  
Faqat yalqov bo'lmayman,

Hecham tortmang Siz tashvish,  
Men... odam bo'laman, dada!  
– Balli, azamat!

## LAQMA LAYCHA VA TULKICHA

Kech qolmay, deb Tulkicha  
Shoshilardi mактабга.  
Yo'lda tanish bir Laycha –  
Uchradi, tutdi gapga:  
– Quloq sol, hoy Tulkiyev,  
Ko'rдim bugun ajib tush.  
Na'ra tortib kelar dev,  
Kimlar qochar, kim behush.  
Dev-chi kelar lapanglab,  
Og'zin ochib tandirday.  
Toychoqni u qildi daf  
Go'yo kichik chandirday.  
Xippa bo'g'ib Eshakni,  
Ikki yamlab bir yutdi.  
So'ng buzib bor katakni,  
Tovuq, xo'rozni tutdi.  
Paqqos yedi Ho'kizni,  
Tatib ko'rди Bo'ridan.  
So'ng simirdi dengizni,  
Chanqovining zo'ridan...  
Ko'rmasa-da naf picha  
Laqma Laycha arzidan,  
Uni tinglab Tulkicha  
Qolib ketdi darsidan.

## O'QITUVCHINING O'GITLARI

Ey, o'quvchim, bilki, har so'z –  
Suvdek aziz, nondek uvol.  
Til boyligin bir bog' desak,  
Har bitta so'z – bitta nihol.

Biron so'zni isrof qilmoq  
Bir ko'chatni yulmoqlikdir.  
Bora-bora, otameros –  
Bog'ni xarob qilmoqlikdir.

Ulg'ayib, yot yurtga borsang,  
Ne atalur eling, derlar.  
Qay millatning vakilisan,  
Bormi ona tiling, derlar.

Shunda, mening qutlug' tilim –  
Navoiyning she'ri, degil.  
Yurtim – Ulug'beg-u Bobur,  
Amir Temur yeri, degil.

Ayt g'urur-la Beruniylar,  
Farg'oniylar – ajdodim, deb.  
Qoshg'ariylar darsin tinglab,  
O'tkirlangan savodim, deb.

Maqtanma hech qimmat kiyim,  
Oltinlar-u qasring bilan.  
Faxr et doim qudratli yurt,  
Boy bilim, zo'r kasbing bilan.

Ey, farzand, o'z obro'yingni  
Saqlamoq o'z qo'lingdadir.

Sening olamdagি narxing  
Vatan, millat, tilingdadir!

## YANGI AVLOD

Aziz ota-onamizning qalqonimiz,  
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga inon.  
Fidodir bu qutlug‘ Vatanga jonimiz,  
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga inon.

Al-Buxoriy, at-Termiziy hazrat bizga,  
Ulug‘begu al-Farg‘oniy savlat bizga,  
Temur bobo, Manguberdi davlat bizga,  
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga inon.

Yurtning do‘stga ochiq bag‘ri bag‘rimizdir,  
Alpomishning yovga qahri qahrimizdir,  
Navoiyning turkiy tili faxrimizdir,  
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga inon.

Qaytib qulga aylanmaymiz bizlar aslo,  
Arzon nonga aldanmaymiz bizlar aslo,  
O‘zgadan baxt tilanmaymiz bizlar aslo,  
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga inon.

## **DO'MBOQCHALAR DUNYOSI**

Yozdim kichkintoylarga  
Ne-ne she'r-u qissalar.  
Menga baxtdir,  
Farzandlar  
Oqil bo'lib o'ssalar.

Odatlari g'aroyib,  
Zap qiziqdir so'zları.  
Aslida,  
Eng zo'r kitob –  
Bolalarning o'zları.

## **YEM QORDIK**

Jomda ivtdik,  
Qara:  
Kepak, somon,  
Kunjara.

Buzoqchamning  
Salati –  
Juda-juda  
G'alati.

## **VELOSIPED BUZILGANDA**

Yuz-qo'lini  
Qilib moy,  
Urinar yosh

Sotimboy.  
Kulib boqar  
Sotimga,  
Tagi ko'chgan  
Botinka.

## **AKA-UKA**

Jar bo'yida turishar  
Aka-uka.  
Aka pastga termilar  
Taka-puka.

Yuksakdagı lochinga  
Boqar uka.  
Go'yo ko'kda jim qanot  
Qoqar uka.

## **BADNAFS DONISHMAND**

Ertak aytar  
Maroziq:  
– Eshitinglar,  
Ja qiziq!

Dono Pashsha  
Bo'lgan mish...  
Moyga botib  
O'lgan mish...

## **OCHOFAT**

Qurmong' ozi

Norozi.

Tuxum tug'mas

Oq g'ozi.

Bitta tug'sa

Oq g'ozi,

Oz, deb yana

Norozi.

## **OROMGOHDA**

Shukur –

Vodiy tomondan.

Jo'ra –

Ohangarondan.

Akrom esa –

Qarshidan.

Men –

Qarama-qarshidan.

## **TAXTA QOPQON**

Taxtamushuk

Shum mezbon.

Ilgagida –

Dasturxon.

Kelsa agar

Mehmonga,

*Yomon bo'lar*

Sichqonga.

## **YARIM TONNA O'YINCHOQ**

Fil, bolasin

Qilib shod,

Olib berdi

Begemot.

Begemotga

Der Filcha:

– Voy, jajisan

Sen buncha!

## **PARISHONXOTIR**

Bizlar desak:

– Jamil, Jamil,

Soyga tushib

Cho'mil, cho'mil...

O'ychan yechdi

Kiyimini,

Soyga otidi

So'ng... shimini.

## **UNI TANIB QO'YING**

Oqtepalik  
Sarimsoq –  
Eng birinchi  
Qurumsoq.

O'zi suyak  
Yemaydi,  
Kuchukkayam  
Bermaydi.

## **DENGIZDA**

Dovul quturib  
Chinqirar.  
Bir to'p chag'alay  
Qiyqirar.

Mardlar uchar  
Dovulda...  
Lanjlar uxlар  
Sohilda.

## **KEZAMAN, YOZAMAN...**

Mening yurtim  
Oltiariq.  
Oyog'imda katta  
Choriq.

Yo'lga boshla,  
Choriq "boboy",

She'rغا yangi  
Gaplar topay.

## **OTASINING QIZI**

– Jamilaxon,  
Jamila,  
Bormi sening  
Familiyang?

O'ylanib der  
Jamila:  
– Bog'bon qizi –  
Familiyam.

## **QOCHMAGIN, XO'PMI?**

Oq to'pponcham  
Yaltirar.  
Qoplon undan  
Qaltirar.  
Qo'rqlma,  
Baxmal qoploncha,  
O'yinchoq  
Bu to'pponcha!

## **TANIB QO'YING**

Gilos terar  
Nodira.  
Gilos yeyar  
Shoto'ra.

Ishga zo'ri –

Nodira.

Tayyorxo'ri –

Shoto'ra.

## SINCHKOV BOLA

Ko'chamizdan

Erta sahar,

Qochib o'tdi

Bir Olapar.

To'xta, desam,

To'xtamadi.

Yaxshi itga

O'xshamadi.

## QUVLASH-QUVLASH

Tutolmadim

Quvlab seni.

Quvlayapsan

Endi meni.

Qochish qiyin,

Qochgan bilar.

Quvish gali

Qachon kelar?

## OSHQOVOQ

Teng bo'lindi

Oshqovoq,

Bo'lib qoldi

Bo'sh qovoq.

Bir pallasi

Oshtovoq,

Bir pallasi

Boshtovoq.

## PECHAK O'T

Molxonaga

Kirsa Uzoq,

Unga qarab

Dedi buzoq:

– Bering o'tning

Pechagidan,

Ko'proq bo'lsin

Kechagidan.

## QAYOQQA

## YURAY?

Muhabbatda

Rubob bor.

Muhammadda

Kitob bor.

O'yaylik, der

Muhabbat.

O'yaylik, der

Muhammad.

## **BAHOROYNING ASHULASI**

Boychechagim  
Ko'k maysa,  
Tugunchasi  
Bir paysa.  
Tegmang,  
Guli ko'paysin.  
Tugunchasi  
Do'mpaysin.

## **PAXTA VA CHIGIT**

Paxtaginam  
Lo'ppicha.  
Chanoqlarga  
Do'ppicha.

O'zi oppoq,  
Bir qarang,  
Bolachasi –  
Jigarrang.

## **ATLASMAKON**

Marg'ilonning  
Markazi zo'r.  
Markazidan  
Atiasi zo'r.

Atlaslarning  
Zuhrasi bu.

O'zbeklarning  
Chehrasi bu.

## **ARSLONBOB**

Arslonbobda  
Shalola.  
Cho'mil,  
Yalla-yalola.

Suvlarini  
Achom qil.  
Tog'lariga  
Salom qil.

## **YAMAMAY QO'YAQOLING**

Tomda yotar  
Yirtiq'chopon.  
Yirtig'ida –  
Uch polapon.

Yirtiq chopon  
Yamalmasin.  
Polaponlar  
Qamalmasin.

## **CHAQQON QIZ**

Savab bo'lib  
Uvada,  
Xamir yoydim  
Juvada.

Dimlab qo'ydim  
Qaylani...  
O'ynab kelsam  
Maylimi?

## SEROBGARCHILIK

Uzum pishdi  
Marjon-marjon.  
Ishkomlarda  
Larzon-larzon.

Savatlarda  
Sarson-sarson.  
Bozorlarda  
Arzon-arzon.

## CHO'PONNING O'G'LΙ

Yuravering  
"Lunaxod"da.  
Suzavering  
Paraxodda.

Uchavering  
Samolyotda...  
Menga mazza  
Saman otda.

## LATIFA ISHQIBOZI

Qand uzatsa ham  
Oyim,  
Tinmay yig'lar  
Guloyim.

Buvim aytdi  
"Afandi",  
Singlim darrov  
Yupandi.

## KAMPIRLAR

Xol bobo chertib  
Tanburni,  
O'yinga tortdi  
Kampirni.

Quvonib yursa  
Kampirlar,  
Shirin bo'larmish  
Patirlar.

## QORAQMAMISH

– Uzoqmikan  
Qoraqamish?  
Borganmisan,  
Qanaqamish?

– Yaqin ekan  
Qoraqamish.  
Borib dedim:  
"Qani qamish?"

## O'ZINI TANIMADI-YA

Oshnachilik  
Hurmati,  
Chizdim Turob  
Suratin.

Unga boqib  
Der Turob:  
– Qaysi sho'rlik  
Bu surob?

## KEYIN BO'LISHAMIZ

– Tomda chalay  
Chirmanda.  
Sen o'yin tush  
Xirmonda.  
– Tomda turshak  
Mo'ldir, hay?  
Cho'ntakka ur  
Bildirmay!

## YO'LAK-CHI?

Ko'ylak yotar  
Chelakda,  
Chelak yotar  
Elakda.

Elak esa  
Tilakda,

Tilak turar  
Yo'lakda...

## "ALIFBE"DAGI SURAT BO'YICHA

- Nechanchida o'qiysiz?
- Birinchida.
- "T" qanaqa bo'larkan?
- Shirin juda.
  
- Nega "T"ni shirin, deb  
Uchinasiz?
- "T" desa, biz tarvuzni  
Tushunamiz.

## JON SAQLASH

- Qo'ziqorin,  
Kutvol akangni.  
Boshdan olib  
Savat shapkangni.
  
- Tega ko'rma,  
Qaytaver quruq.  
Men zaharli  
Battol zamburug'.

## IKKI "AYG'OQCHI"

Qo'lidagi  
Turshakmi?  
Xo'rozqandmi,  
Pashmakmi?

Bir narsa bor  
Turg‘unda.  
Qarab ko‘r-chi  
Durbinda.

### **EGIZAK CHAQALOQLAR**

Bittasi  
Ozg‘in.  
Yotar jim,  
Horg‘in.

Biri  
Semiz et,  
Yig‘lar  
“Emiz”, deb.

### **O‘YINCHOG‘IM QANI?**

Qayda qoldi  
Qo‘zichoq?  
Ikki ko‘zi  
Qo‘shmunchoq.

Peshanasi  
Do‘nggina...  
Qaytib bering  
Jo‘ngina.

### **POLVON UKAM**

Yig‘ilganda  
Dasturxon,  
Ortib qoldi  
To‘g‘ram non.

Uni berdim  
Ortiqqa.  
Bulab ur, deb,  
Qatiqqa.

### **HALI O‘ZIM BOLAMAN-KU**

Dadajonim,  
Dadajon,  
Otim nega  
“Otajon”?

Axir kimga  
“Ota”man?  
Shuni o‘yla-a-ab  
Yotaman.

## **SIRNI BOY BERMAY**

To'p o'ynasak,  
Madaminbek –  
Chaqib turar  
Bodomin tek.

Desak: "Kel,  
Bu – qiyinmas".  
Der: "Bu menbop  
O'yinmas".

## **SHU HAM FILMI?**

Magazindan  
Yosh Qobil,  
Olgan emish  
O'rdak, Fil.

Yashik tormish  
O'rdakka.  
Fil sig'armish  
Cho'ntakka.

## **TAQILLOQ ETIK**

Etigimning  
Nag'ali zo'r.  
Yo'lida yurgan  
Mahalim ko'r.

Etik yoqib  
Matqovulga,

Der: "O'xshaysan  
Qorovulga".

## **JAJJI BEKA**

Charchab qolmang,  
Xola, xola.  
Juda baland  
Boloxona.

Bog'ga yuring,  
Xola, xola.  
Hakkalar bor  
Ola-ola.

## **BALIQCHINING ASHULASI**

Nor o'tirar  
Qirg'oqda,  
Ikki ko'zi  
Qarmoqda.

Asta aytar  
Ashula:  
"Mehmonga kel,  
Akula!.."

## **QIZILGUL**

Qizilgulning  
G'unchasi –  
Atir to'la  
Xumchasi.

Yaproqlari  
Yostiqcha...  
Tikanlari  
Ortiqcha.

## AYOZ

Yeb sovigan  
Ovqatni,  
Nor yanayam  
Sovqotdi.

## BUGUN – BAYRAM

Ichib olib  
Choyingizni,  
Olib chiqing  
Toyingizni.  
Minib olib  
Toyingizga,  
Gul opkeling  
Oyingizga.

Daroz yurar  
Jaynoqvoy,  
Ichib olib  
Qaynoq choy.

## KULCHALAR

Anjirginam,  
Anjirjon.  
Mitti-mitti  
Kulchanon.

Ko'pchib  
Tuproq-xamirda,  
Pishding  
Quyosh-tandirda.

## SUVONQUL

Chetda turar  
Suvonqul.  
Suvonquldan  
Gumon qil.

Yo qo'lida  
Qandi bor,  
Yo lunjida  
Manti bor.

## JASURLIK

O'tda kuyar  
Qo'rg'oshin –  
Sinab ko'rdik  
Bardoshin.

To'ksa hamki  
Ko'z yoshin,

Dodlamadi  
Qo'rg'oshin.

## QAYSINISI SHIRINROQ?

Bir yonda –  
Nok,  
Bir yonda –  
Tok.

Yedim  
Uzum,  
Nokda  
Ko'zim.

## YUVOSHGA MAZA

Yig'lar  
Boqi.  
Kular  
Voqi.

Soqi  
Yuvosh  
Ichar  
Sut osh.

## KIM RANJITDI?

Taqillatib  
Mis tomni,  
Osmondan  
Ko'zyosh tomdi.

So'rab ko'r-chi,  
Yigitcha,  
Nega yig'lar  
Bulutcha?

## KEMACHANING USTASI

Kemalarni  
Soyga qo'yib,  
Quvaladik  
Poyga qo'yib.

Kemam qurg'ur  
Cho'kib ketdi.  
Obro'yimni  
To'kib ketdi.

## ESDALIK

Zo'rmii kigiz  
Qalpog'im;  
Guldor,  
Usti yalpog'im?  
Buni qirg'iz  
Do'stimga,  
Almashganman  
Do'ppimga.

## QATIRMAXO'R

To'ydan darak  
Topgan on,  
Yetib borar  
Matqurban.

## **QOCHQOQ**

Lola bilan  
Dalada,  
Qolib ketdik  
Jalada.

Ivimay deb  
Jalada,  
Quyosh yotar  
Panada.

## **TO‘G‘RI TAQSIMLADIKMI?**

Mana, olti bog‘  
Xashak.  
Bir bog‘ini yer  
Eshak.

Ikki bog‘in  
Qo‘yga ber.  
Uch bog‘ini  
Quyon yer.

Boqmas somsa,  
Patirga.  
Deydi: “Bormi  
Qatirma?”

## **BOSHDAN O‘TGAN-DA**

Cho‘milaver,  
Sayoz bu ko‘l.  
Qilmasang bas  
Shimingni ho‘l.

Shum bolalar  
Kelishadi,  
Shimi ho‘ldan  
Kulishadi.

## **AQLLARI KIRGACH...**

Mishavoyda –  
Mushukcha.  
Teshavoyda –  
Kuchukcha.

Mushukchaga  
Do‘sst kuchuk...  
Ulg‘ayishgach –  
It-mushuk.

## HIDLASHGA BALO BORMI?

Darrov yemay  
Jiydani,  
Yoyib qo'yib  
Hidladi.

Keldi-yu Nor,  
Elomon,  
Jiyda bo'ldi  
Talamon.

## ORTIG'INI SOTAMIZ

Sholg'om qaynar  
Sho'rvada.  
Qolganlari –  
O'rada.

Ular bir oy  
Tunashar,  
So'ng, bozorga  
Jo'nashar.

## ISIRIQ

Uyim Oloy  
Tog'ida.  
Yo'lning kungay  
Yog'ida.

Laqabim bor –  
Adrasman.

Adashmanglar  
Adresdan...

## YORDAMCHI TOPILADIMI?

Bog'ga kirib  
Normamat,  
Behi terdi  
Bir savat.

Endi kutar  
Samadni,  
Ko'tarolmay  
Savatni.

## BUZG'UNCHI

Yulqidi  
Ko'k palakni:  
Qovunni,  
Handalakni.

Ag'nab ketdi  
Kapamiz...  
Shamoldan  
Sal xafamiz.

## OQIBAT

To'p olishdi  
Yap-yangi.  
Tozalashdi  
Gard-changin.

Uni puflab  
O'pishdi.  
Keyin rosa  
Tepishdi.

## AYYOR

Tarvuz uzib  
Eng katta,  
Yumalatdim  
Uvatga.

Dedi tarvuz  
So'laqmon:  
- Ko'tarib ol,  
Cho'loqman.

## MUG'AMBIR

Nok berdingiz  
Talashtirib.  
Keting endi  
Yarashtirib.

Bo'ling,  
Topib o'rtasini.  
Menga bering...  
Kattasini.

## LOFCHI

Tanib qo'ying  
Siz mani.

Zo'rman, ismim  
Shog'ani.

Tuyaquushni  
Tutganman.  
Patin yulmay  
Yutganman.

## ALDOQCHI

Holva juda  
Achchiq bo'lar.  
Asal yesang,  
Sanchiq bo'lar.

Ko'k qalampir  
Mazza bo'lar...  
Kim ishonsa,  
Izza bo'lar.

## MEHRIBON

Qarg'ani ko'p  
Qag'illatmang.  
Ukangizni  
Vag'illatmang.

Qarg'aga don  
Sepib qo'ying.  
Ukangizni  
O'pib qo'ying.

## **MEHMONDO'ST**

Yuring, aka,  
Yer ochamiz.  
Erta bahor  
Don sochamiz.

Donni sochib,  
Don topamiz.  
Mehmonlarga  
Non yopamiz.

## **OCHIQQO'L**

O'ynab yurib  
Sotvoldi,  
Yo'ldan tanga  
Topvoldi.  
Olib yegin deb  
Makka,  
Berdi uni  
Chittakka.

## **YEFTO'YMAS**

Lapanglaydi  
Norimboy.  
Uni deymiz  
“Qorinboy”.

Pishirgandik  
Oshqovoq,  
Yedi faqat...  
Besh tovoq.

## **ODAMOVI**

Hammaga  
Badjahlsan.  
Hammamizga  
Baxilsan.

Hammamizdan  
No'noqsan.  
Hammamizdan  
Uzoqsan.

## **BAHONACHI**

Kasal yotgan  
Emish Karim,  
Og'riydi deb  
Kipriklarim.

Ishtahasi yo'qmish  
Hisob.  
Yeyar emish  
Bo'lsa kabob.

## **PISMIQ**

Mahmud boqib  
Kolbasaga,  
Tushib qoldi  
Talvasaga.

Bo'lsa ham u  
Lattagina,  
Tishlab qochdi  
Kattagina.

## **TANTI**

Oshpaz bola  
Tanti ekan,  
Pishirgani  
Manti ekan.

Keldi, ana,  
Xo'randalar:  
Hasharot-u,  
Parrandalar.

## **G'IYBATCHI**

Nurbek seni  
Yomon, dedi.  
Qarab tursin  
Omon, dedi...

...Omon sendan  
Juda xafa.  
Nurbekvoy, bu –  
Qanday gap-a?

## **ANDISHALI**

Bizni bo'shang  
Bilmang, aka.  
Chaqimchilik  
Qilmang, aka.

Undan ko'ra  
Pista chaqing.

Xohlasangiz,  
Yuzta chaqing.

## **FIKRCHAN**

Oq bulutmi  
Osmonda,  
Yo to'shakmi  
Taxmonda?

Oy shunchalar  
Qirmizmi,  
Yo bo'lingan  
Tolvuzmi?

## **HISOBDON**

Hajalbibi –  
Yanga,  
Menga berdi  
Tanga.

To'rtta bo'lsa  
Yangam,  
Ko'p bo'lardi  
Tangam.

## **MEZBON**

Qishlog'imiz –  
Poloson.  
Kelsang,  
Yayrab qolasan.

Quriguncha  
To palak,  
Yeb ketsang-chi  
Handalak.

### NASIHATGO'Y

O'ynamagin  
Yomon bilan,  
Tepib qochar  
Tovon bilan.

O'yna, yaxshi  
Bola topib,  
Yo uyda yot  
Xola topib.

### XUDBIN

Ovqat yesang,  
Meni chaqir.  
Eshitmasam,  
Qattiq baqir.

Ovqat yesam,  
Indamagin.  
Boraymi, deb  
Imlamagin.

### HAVAS QIL

Bo'lay desang  
Bulbulcha,

Havas qilgin  
Bulbulga.

Hasad qilsang  
Bulbulga,  
Arzimaysan  
Bir pulga.

### KO'NGIL YAQIN BO'LSA...

Gapiradi  
Jonzotlar:  
Pashsha, Tovuq  
Va Otlar.

Kimki bo'lsa  
Mehribon,  
So'ylar hatto  
It, Ilon.

### ERTAK

Qo'ng'ir Ayiq –  
Po'stin ekan.  
Bo'ri – charim  
Kostyum ekan.

Tulki esa,  
Telpak ekan...  
Biz uchun bu  
Ertak ekan.

## **BOZORCHILAR**

Sichqon keldi  
 Bolish olib.  
 Kalamushvoy –  
 Kalish olib.

Sichqon yedi  
 Kalishchani.  
 Kalamushvoy –  
 Bolishchani.

## **ISHTAHA**

Ko'kka boqib  
 O'ylar Jo'ja:  
 "Yulduz terib  
 Yesang picha..."

Kuchuk boqar  
 Oyga ulib.  
 Oy ko'rinar  
 Suyak bo'lib.

## **PAHLAVONCHA**

Oyi, yemish  
 Topib bering.  
 Shirin kulcha  
 Yopib bering.  
 Qaymoqqa bir  
 Botirvolay...  
 Yeyishni so'ng  
 Qotirvoray.

## **PANADAN TURIB**

Musht do'layib  
 Chigirtka,  
 Do'q urardi  
 Burgutga:

– Sen bolamni  
 Cho'chitma,  
 Qo'limni ko'p  
 Qichitma.

## **IXTIYOR O'ZIDAMI?**

Ilindi Cho'rtan  
 Qarmoqqa.  
 Kimdir tortar  
 Qirg'oqqa.

Bolalar turdi  
 Oyoqqa:  
 – To'xtang, buvijon!  
 Qayoqqa?

## **G'OLIB**

Bokschi It  
 Dedi xurib:  
 – Olqishlamang,  
 Qarsak urib...

Tinglab u do'st  
 Qarsagini,  
 Eslar raqib  
 Tarsagini.

## **NOTANISH MAQTANCHOQ**

Angrayib der  
Yosh Delfin:  
– Jonzotmisan  
Yoki jin?

Timsoh dedi:  
– Akasi,  
Men – suvosti  
Kemasi!

## **QUYOSHNING MAKTUBI**

Rayhon bargmas,  
Pat yozdi.  
Bargga oftob  
Xat yozdi.

Xatni o'qir  
So'zanak,  
Taqib olib  
Ko'zoynak.

## **CHIYABO'RILAR ASHULASI**

Cho'l o'zgarib  
Daf'atan,  
Bo'lib qoldik  
Bevatan.

Yuguramiz  
Qirma-qir...  
Qirilamiz  
Birma-bir.

## **SUV NEGA OQADI?**

Charxpalak  
Aylanar.  
It termilib  
O'ylanar:

"Aylanmasa  
U ildam,  
Oqmas edi  
Suvlar ham".

## **QISH KELYAPTI**

Pashsha sang'ib  
Kechgacha,  
Topdi mitti  
Pechkacha.

Afsus, yo'qmish  
Tarasha,  
Bu pechkaga  
Yarasha.

## **HO'KIZNING VASIYATI**

Bo'lib keldim  
Sizga tirlak.  
O'lganda ham  
Bo'lay kerak.

Junlarimdan  
Kigiz qiling.  
Mugizimdan  
Bigiz qiling.

## **KASBINI QO'MSAGANDA**

Qisqichbaqa  
Montyormish.  
Sho'rlik ammo  
Shapko'rmish.

Ba'zan charxlab  
Ombirin,  
Qirqar qamish  
Tomirin.

## **XAVFLI YO'LOVCHI**

Izvoshchi edi  
Quyon,  
Izvoshga chiqdi  
Qoplon.

Dedi: "Hayda  
O'rmonga...  
Ko'zdan pana  
Tomonga".

## **ADI-BADI**

Choynak boqdi  
Oynakka.  
Oynak boqdi  
Choynakka.

Choynak dedi:  
– He, yalpoq!  
Oynak dedi:  
– Dingquloo!

## **"SHUDGORDA QUYRUQ YOTGANMISH..."**

Sichqon aytdi  
Ilonga,  
Ilon aytdi  
Quyonga.

Quyon aytdi  
Qoplonga,  
Qoplon... tushdi –  
Qopqonga!

## **CHUMOLI**

Qayga borar  
 Chumoli?  
 Boshda parang  
 Ro'moli.  
 Yelkasida  
 Jomadon.  
 Jomadonda  
 Arpa don.

## **QUYONNING TUG'ILGAN KUNIDA**

Ari keldi  
 Asal olib,  
 Echki – qopga  
 Karam solib.

Ayiq keldi  
 Qoshiq bilan,  
 Bo'ri – pichoq,  
 Sochiq bilan.

## **KEMIRUVCHI**

Har yerda bor  
 Tomir qurti.  
 Asli qayda  
 Uning yurti?

Javob berdi  
 Tomir qurti:

– Qayda to'ysam,  
 O'sha yurtim.

## **OCH RAQQOS**

Tervanbeshik  
 Tervandi.  
 Sho'x o'ynashni  
 O'rgandi.

Chivin kelib  
 Nay chaldi.  
 Raqqos unga  
 Chang soldi.

## **BOQUVDAGI OT**

Tulpor chetga  
 Tupurdi,  
 So'ng, Xachirga  
 Gupurdi:

– To'q yuribman  
 Ishlamay.  
 Nega endi  
 Kishnamay?

## **ANA XOLOS!**

Loyga botib  
 Baqirdi,  
 Sichqon kimni  
 Chaqirdi?

Taqdir ekan,  
Shu damda –  
Mushuk keldi  
Yordamga.

### KO'LMAKDA

Ikki ochko'z  
O'rdakcha  
Talashib qoldi  
O'lja.

Ana, borar  
Qizg'in jang.  
Tomoshabin –  
Chuvolchang.

### DO'ST BO'LMAY KET!

Chag'ir Ilon  
Yonboshladi.  
O'yga cho'mib,  
Bosh qashladi:

"Do'stim Qo'ng'iz  
Kelmadi-ya.  
Ochligimni  
Bilmadi-ya..."

### DO'L SAVALAGANDA

Yomg'ir yog'di,  
Do'l bo'ldi.  
Xo'roz sho'rlik  
Ho'l bo'ldi.

Tovuq qochdi  
Katakka,  
Chidamasdan  
Kaltakka.

### YIRTQICHLIKKA ISHQIBOZ

Tishin kavlar  
Bozg'onchi.  
Bozg'onchilar  
Yolg'onchi.

Pashshaxo'rlik  
Qilib der:  
– Nasib ekan,  
Yedik Sher.

## HAMMOMDAGI MOJARO

O'rmon bilan adirning  
O'rtasi dala.  
Hammom qurdi shu joyga  
Fil kuzak palla.

Suv isitish bo'yicha  
Timsoh bo'ldi bosh.  
Oq Mushukxon pattachi,  
Qora It farrosh.

It hammomning eshigin  
Ochmoq bo'lgan on,  
Kirib keldi teshikdan  
Bevosh bir Sichqon.

Mushukdan u o'zini  
Olib panaga,  
Dedi: "Bitta chipta yirt  
Menga... vannaga".

Keyin vaysab o'zicha  
Keldi yosh Xachir:  
"Tfu!  
Bugun go'ng tashib  
Bo'pketdim yag'ir".

Bo'ri kirib so'radi  
G'ildirab ko'zi:  
"Yuvilingani keldimi  
Bironta Qo'zi?"

Gavjum bo'ldi yuvinish –  
Xonasi rosa.  
Qani endi hammayam  
Qilsa murosa.

Ayiq ezib Yumronni  
Chinqiratgan on,  
Quva ketdi Baqani  
Jomda Suvilon.

Ishqagichim qani, deb  
Bo'kirdi Ho'kiz.  
Yirtib qo'ydi Echkining  
Lungisin To'ng'iz.

Dadasiga arz qildi  
Dingquloq Quyon:  
"Sovunimni yeb qo'ydi  
Anov Karkidon".

Eshak haydar Pashshani,  
Ot turtar G'ozni.  
Joy talashib Tulkivoy  
Quvlar Xo'rozni.

Bezor qilgach sur Maymun  
Tinsiz qitiqlab,  
Tashqariga yo'l oldi  
Burundiq yig'lab...

So'ng kiyinish xonasi  
Bo'ldi to'polon.

Bosib olib Kirpini,  
Dod soldi Qoplon.

Birdan kimdir baqirdi:  
“Muttaham Chivin!”  
... Kiyib qochgan emish u  
Zebraning shimin.

## **BEBOSH**

Tangabaliq tashvish chekar  
O‘g‘li qaytmay xonaga.  
Yo ataylab erkatoi  
Berkinganmi panaga?

Sho‘x emasmi, sayr qilib  
Ketgandir yo uzoqqa.  
Yosh emasmi, to‘rni ko‘rmay  
Tushgandir yo tuzoqqa.

Balki kimdir uni aldab,  
Qarmoq bilan tutgandir.  
Balki uchrab ochko‘z cho‘rtan,  
Tiriklayin yutgandir.  
Tangabaliq tashvish chekar  
O‘g‘li qaytmay xonaga.  
Bebosh bo‘lsa erkatoi,  
Qiying ekan onaga.

## **BO'RICHANING MEHRIBONLIGI**

Quloncha ham chiroyli,  
Quyoncha ham chiroyli.  
Buncha go'zal Qo'zichoq,  
Kiyikcha – naq qo'g'irchoq.

Hammasini erkalab,  
Boshlarini siypalab,  
Juda suygim kelyapti,  
"Xap" qipqo'ygim kelyapti!

## **CHETDAN QARAGANDA...**

Yonida bir paqir suv,  
Ho'kiz so'zlar minbarda:  
– Insof bormi o'zi bu  
Eshak degan xumparda!  
Biz dalada ishlaymiz  
Ko'zimizni tindirib.  
Yallo qilib yurar u,  
Birovlarni mindirib.

## **BUYUK XAYOLPARAST**

Bir Qo'zi bor, xush ko'rар  
Kuylamoqni u juda.  
Kuylab yurar Bo'rini –  
Yegan qo'ylar haqida.

Bo'ri qonxo'r va kuchli,  
Qo'zi buni biladi.  
Qo'ylar ham zo'r bo'lishin  
Faqat orzu qiladi.

## BAHONACHILAR KASALXONASI

Doktor Quyon sertashvish,  
Hamshira G'ozlar notinch.  
Kasalxona  
To'satdan  
Bo'lib ketdi tinqilinch.

Bo'ri keldi inqillab,  
Chivin chaqib oldi, deb.  
Ayiq yotar,  
Olmaxon –  
Yong'oq bilan soldi, deb.

Echki der:  
– O, do'xtirjon,  
Bo'l uvali-juvali.  
Panjasini ko'zimga  
Tiqib oldi Chumoli.

Qo'ng'iz mayib qilgan mish  
Bosib Itning oyog'in.  
Sichqon esa  
Cho'zgan mish  
Xachirvoyning qulog'in.  
Yig'lamsirab  
Keldi Sher,  
Tepdi deb qo'rs Suvarak.  
Otning boshin yorgan mish  
Shoxdan tushgan duvarak.

Karavotda o'tirar  
Ho'kiz  
Cho'mib sukutga,

Bechorani sababsiz  
Kaltaklabdi Chigirtka.

Og‘ir yotar,  
Ayniqsa,  
Karkidon degan nusxa.  
Bexos tishlab olgan mish  
Uni yirtqich Qumursqa.

Alohidha xonada  
Arslon uxlari  
Shohona.  
...Ishlar faqat go‘l Eshak  
Topolmasdan bahona.

## **QUYOSHNI QARSHILASH**

Paydo bo‘lgan choq quyosh,  
Jilmayib ko‘z qisdi Mosh.  
Qichqirdi so‘ng yosh Baboq:  
– Omonmisan,  
Hey, o‘rtoq!

It ulidi ayvondan:  
– Salom hamma hayvondan!

## **ROSTGO'YLIK**

Sarg'ish Mushuk bekaning  
Bordir ikki farzandi.  
Biri – juda erka qiz,  
Biri – o'g'ildir tanti.

Ismlari ja o'xshash:  
Miyovxon va Miyovjon.  
Miyovxoni – sal nozik,  
Miyovjoni – pahlavon.

Mushukchalar bir kuni  
Uyda yolg'iz qolishdi.  
Javonchani ochishib,  
Asta nazar solishdi.

Kavshay ketdi Miyovxon  
Topib olib quymoqni,  
Chaqib ko'rди Miyovjon  
Bir-ikkita yong'oqni.

Bir payt kelib oyisi  
Qarasa-ki – ish chatoq:  
Quymoq sira qolmabdi,  
Kamayibdi sal yong'oq.  
Miyovxonga boqdi u:  
“Javob ber,  
Bu qanday gap?”  
“Nega mendan ko'rasiz?” –  
Deya qizi burdi lab.

Oyisi der o'g'liga:  
“To'ymas ekan hech ko'zing!

Ham yong‘oq, ham quymoqni –  
Yeb qo‘ydingmi bir o‘zing?”

Yerga egib boshini,  
Dedi rostgo‘y Miyovjon:  
“Shu aytgan gapingizning –  
Yarmi – rost,  
Yarmi – yolg‘on!”

## ESKI TO‘PPONCHA

O‘ynab yurib o‘rmonda  
Sho‘x va quvnoq Quyoncha,  
Topib oldi so‘qmoqdan  
Bitta eski to‘pponcha.

So‘ng borib, yosh Ayiqning  
Qarshisida to‘xtaldi.  
“Ko‘tar, Maymoq, qo‘llingni!” –  
Deb, qurolin o‘qtaldi.  
Ag‘nab tushdi Ayiqcha  
To‘sganicha yuzini.  
To‘pponchaga boqdi u,  
Baqraytirib ko‘zini.

Dingquloqning quroli –  
Oddiy yog‘och, ko‘rsaki.  
...Shunday qilib, Quyoncha –  
Yeb oldi bir tarsaki.

## **VAHIMACHI**

Qochib kelar qari Fil,  
Hayajonda boshqalar.  
Qichqirdi u hansirab:  
– Qutqaringlar, oshnalar!

Meni yovuz bir Sichqon  
Quvlab kelar uzoqdan.  
G'ajib tashlar miyamni  
Kirib olsa quloqdan.

Ayiq, Bo'ri va Qoplon  
Juda hayron bo'lishdi.  
Lekin, sayoq Mushuklar  
Maza qilib kulishdi.

## **CHITTAK XOLA**

To'qir edi savat uy  
Chittakvoyning xolasi.  
Bu nima, deb so'radi  
Undan Filning bolasi.  
Javob qildi tumtayib  
Qari, jahli tez Chittak:  
– Kattalarning ishiga  
Aralashma,  
Tirmizak!

## MASHHUR TO'POLONCHI

Tanishaylik, jo'ralar,  
So'ng mendan... hol so'ranglar...  
Rosti,  
Juda zerikdim,  
Qani, menga sherik kim?  
Mayli, kelsin Tuyaqush,  
Bo'rsiq yoki Kalamush.  
G'oz kelsa ham ayb emas,  
Yaxshi o'rtoq bo'lsa, bas.  
Axir,  
Kimga kelar xush  
Ko'chada yolg'iz turish?  
Uf-f...  
Chiqdim men uyimdan  
Gap eshitib buvimdan,  
Gap eshitib ayamdan,  
Gap eshitib dadamdan  
Va opamdan turtki yeb...  
Ismim – Sa'va Ukkiyev!

## OHUCHANING ONASI

Qulab ketdi yosh Ohu  
Tikan bosgan jarlikka.  
Quvontirib onasin,  
Turdi darhol u tikka.

Zulmat desak jarlikni,  
Yoshlik o'xshar chaqmoqqa.  
Sakrab-sakrab Ohucha  
Chiqib oldi so'qmoqqa.

Bolasiga suykanib,  
Yarasidan qon yalab,  
Shivirladi onasi  
Uni suyib, erkalab:

– Shox-shabbalar yuzingni  
Tilgan bo'lsa, satqayi.  
Chag'ir toshlar belingni  
Shilgan bo'lsa, satqayi.

Satqayi sar, darz ketsa  
Tishing yoki muguzing.  
Sog' bo'lsa bas, oppog'im,  
Oyoqlaring va ko'zing.

Faqat qonxo'r Bo'rilar  
Bo'lar "temir" tish-jag'lik.  
Muguz bizga ne darkor,  
Qismatimiz – qochmoqlik.

Jardan dangal sakramoq  
Tengdir bizda mardlikka...

Yovlar yegan otangni  
Qulatvolib jarlikka.

Butkul xalos bo‘lguncha  
Yirtqichlardan bu olam,  
Ko‘z va chopqir oyoqlar  
Faxrimizdir, jon bolam.

## GEOGRAFIYA DARSIDA

Sichqonchalar – partada,  
Qari sichqon dars o‘tar.  
Tayoqchani o‘ynatib,  
Xaritadan ko‘rsatar:  
– Kichraytirib olganmiz,  
Mitti demang siz uni.  
Asli,  
Salkam qirq sarjin  
Bu chiziqning uzuni.  
Eni esa, kamida  
O’n besh sarjin keladi...  
Shu omborning hammasi  
Bizning Vatan bo‘ladi!  
Omborning uch yoni – cho‘l,  
Tuproqlari to‘q sariq.  
Kesib o‘tgan bir yondan  
Cheksiz-tubsiz o‘qariq.  
Bu ariqning naryog‘i  
Poyonsiz yashil qirg‘oq...  
Qisqasi, u tomonlar –  
Ombordan ham kattaroq.

## ZO'RAVONLIK

Ochko'z, surbet kanalar  
Maslahat qilib birga,  
Do'q urib xat yozishdi  
Yuvosh ola Sigirga:  
"Shartimiz bor.  
Ko'nmasang,  
Ko'rsatamiz kuningni.  
Biz qoningni so'rgan payt,  
O'ynatmay tur dumingni!"

## NAVBATI BILAN

— Do'stlar,  
Saxiy Burgutga  
Bo'lsin sharaf-shon!  
Kepqoling,  
U tekinga  
Ulashmoqchi don...  
Shunday deya jar soldi  
Jarchi Chug'urchiq.  
Qushlar turdi qatorga,  
Oldinda – Chumchuq.  
Burgut kelib, so'radi:  
— Eng birinchi kim?  
Xullas,  
Chumchuq eng oldin –  
Bo'ldi unga yem.

## **PARDOZCHI**

Echkiemar xolaning  
Bir qizi bor – arazchi.  
O‘ta ketgan yalqov-u,  
Lekin juda pardozchi.

Toshoynakka temulib,  
Oro berar o‘ziga.  
Ilonlarni cho‘chitar  
Surma qo‘yib ko‘ziga.

Tirnoqlarin bo‘yaydi,  
Xinagulni xom chayib.  
So‘ng oqshomda sayr etar  
Yantoqzorda iljayib...

Iye, bugun xafami?  
Egib turar boshini.  
...O‘sma qo‘yay desa u,  
Topolmabdi qoshini.

## AYBSIZ AYBDOR

Qumursqalar qurishdi  
O'n qavatli zo'r maktab.  
Buni Qarg'a o'rmonda  
Hammaga aytdi maqtab.

Kirtumshuqli yosh To'ng'iz  
Bilim olishni ko'zlab,  
Qayinzorga jo'nadi  
Yangi maktabni izlab.

Yo'lda chirik to'nkani  
U tepalab o'tgan on,  
Eshitildi "qiy-chuv"lar...  
Bu qanaqa to'polon?

Tepakal bir Qumursqa  
To'ng'izga musht o'qtaldi:  
– Bo'pketdingmi zo'ravon?  
Shoshmay turgin sen hali!

Yelka qisdi To'ng'izcha:  
– Nima qildim, amaki?  
Ji-i-m maktabga ketyapman,  
Bo'l mang buncha jirraki.

Kuyunib der Qumursqa:  
– Qarab qo'ying bu gapni.  
Axir, ezib o'tding-ku  
Hozir o'sha maktabni.

## ONDATRA

Shovqin soldi Qurbaqa:  
– Balo yog‘ildi,  
Voy-dod!  
Ko‘lda paydo bo‘libdi  
Ondatra degan zot.

U balig‘-u baqani  
Quvlab mazax qilyapti.  
Ana o‘zi,  
Qaranglar,  
Biz tarafga kelyapti!

Kuldi qari Toshbaqa:  
– Kelsin-chi,  
Bir ko‘ramiz.  
Hozir o‘sha kazzobning  
Ta’zirini beramiz.

Uzoq joyga ketuvdi,  
Qaytibdi-da  
Boyoqish.  
O‘zgartibdi ismin ham,  
Asli u – Suvkalamush.

## **SOBIQ VAHSHIY**

Bo'ri turar so'qmoqda  
Latta bog'lab oyoqqa.  
Tinmay javrar,  
Suyanib –  
Yog'och qo'litiqtayoqqa:  
– Yurar edim yaylovda  
Qo'ylar holin tang qilib.  
Bo'ldim qattiq yarador,  
Itlar bilan jang qilib.  
O'ljangizdan ozgina  
Tashlab o'ting, Sher og'a.  
Sizdan sobiq mard vahshiy  
So'ramoqda sadaqa.

## **PANDAVAQI**

Qarg'a dedi:  
– Yur, Bulbul,  
Gulzorda sayr qilamiz.  
Asli,  
Gullar qadrini  
Sendan ko'proq bilamiz.

Karnaygulni ko'rsatib,  
Bulbul der:  
– Bu qanday gul?  
Javob qildi Qarg'a:  
– Bu...  
O'zimizning... surnaygul.

## TAXIR SOVG‘A

Maysa chaynar qo‘y-qo‘zi  
Daradagi o‘tloqda.  
Uloq chiqdi qoyaga,  
Tirmashib tik so‘qmoqdan.

Lola terdi chidab u  
Qoqinsa ham goh toshga.  
Axir, do‘sti Xachirvoy  
To‘lar bugun bir yoshga.

Qaytib tushgach Uloqcha,  
Guldastani tuzatdi.  
So‘ng o‘rtog‘in tabriklab,  
Sovg‘asini uzatdi.

Lolalarmi kavsharkan  
Xachirvoy qilib huzur,  
Dedi:  
– Taxir bo‘lsa ham,  
Xashak uchun tashakkur!

## YIRTQICH

Oyisiga ergashib  
O'ynab kelgan Tulkicha,  
Qo'shni qari Bo'riga  
Maqtanib qoldi pitcha:  
– Ayiq katta bo'larkan,  
Hech ko'rmagan ekanman.  
Bo'ri dedi gerdayib:  
– Men Ayiqni... yeganman!  
– Ko'rdim xunuk hayvonni,  
Qo'pol-u, chopar "g'iz-g'iz".  
– Xix-xi,  
Tishi uzunmi?  
Yeb ko'rganman, u – To'ng'iz.  
– Uchrab qoldi dalada  
Shoxi o'tkir bir Taka...  
– Be-ye, u tayyor o'lja-ku,  
Ta'min totganman, uka.  
– So'ng yo'liqdi shudgorda  
Traktor degan narsa.  
Shovqin solib,  
Bo'kirib,  
Quvladi bizni rosa.  
Bo'ri dedi:  
– Traktor?  
Ko'rmaganman hech uni.  
Lekin, uka, sog' bo'lsak,  
Yeb ko'ramiz bir kuni.

## AJOYIBXONA

Aytib qoldi xushxabar  
Ertalab Dona:  
“Kelgan emish chet eldan  
Ajoyibxona!”  
Yetib bordik u yerga,  
Ikkovlon mammun.  
Chipta sotib turardi  
Olako‘z Maymun.

Darvozadan o‘tdik biz,  
Sira hayiqmay.  
Chiptamizni tekshirib,  
Yirtdi Ayiqvoy.

Yonimizga keldi-yu  
Ko‘kish bir Bo‘ri,  
Bizni shag‘al yo‘lakdan  
Boshladi to‘g‘ri.

“Bolalarmi, – dedi u, –  
Yaxshi ko‘raman.  
Hayvonlar bilan sizni  
TANISHTIRAMAN...”

Olib borib bizni u  
Filning yoniga,  
Dedi:  
– Meva-chevalar  
Uning joni-da.

So'ng Begemot oldida  
To'xtalib dedi:  
– Bultur uch yuz kilolik  
Chaqaloq edi.

Ma'lum qildi siypalab  
Tulki bolasin:  
– Kecha Sherxon yeb qo'ydi  
Buning onasin...

Sherdan esa, tumtayib,  
O'girdi yuzin:  
– Ana, ko'rib turibsiz  
Qonxo'rning o'zin.

Yo'lbarsni ham ko'rsatdi,  
Keyin – Qopltonni.  
Ayniqsa, ko'p maqtadi  
To'lpot Quyonni.

Karkidon-u Silovsin,  
Jayradan o'tib,  
Keldik cho'yan panjara  
Yoniga yetib.

Bu xonada  
Sochilib –  
Yotardi xashak.  
Chaynar edi xashakni  
Qoramtil Eshak.

Tanishtirdi Bo'rivoy:  
– Bu – yangi mehmon.

Juda o'tkir tovushli  
Va xavfli hayvon!

Dona dedi qo'l siltab:  
– Buni ko'rganmiz.  
Ochiq aytsam,  
Hattoki,  
Minib yurganmiz...

“Qoyil!” deya bosh chayqab  
Qo'ydi-yu Bo'ri,  
Bizni shag'al yo'lakdan  
Boshladi to'g'ri.

## **ONANING JASORATI**

Ona Sichqon baxtiyor,  
Qayg'urmoqqa yo'q o'rinn.  
Tez kunda bo'lar dastyor  
Biri-biridan shirin  
Uning olti bolasi.

Kun-tun yemish qidirib  
Ombor kezar, charchamas.  
Kulbasini to'ldirib,  
Shod-u sog'lom o'ssa bas  
Uning olti bolasi.

Lekin hozir noiloj,  
Omborda shum Mushuk bor.  
Uyda esa yotar och  
Qotgan nonga bo'lib zor  
Uning olti bolasi.

O'tirsinmi shu alpoz? –  
Ona hanuz o'ylardi.  
Chandir topsa, qanday soz! –  
Tortqilashib o'ynardi  
Uning olti bolasi.

Ona nochor qo'zg'aldi  
Oziq topmoq kuyida.  
Umidvor boqib qoldi  
Huvillagan uyida  
Uning olti bolasi.

...O'lja bo'lib Mushukka,  
Ona ingrar, qaltirar.  
Asta boqar teshikka,  
Olti juft ko'z mo'ltirar –  
Uning olti bolasi.

## CHET TILI

– Ruschasiga "olcha" nima? –  
Deb so'radi Zag'izg'on.  
– Vish-sh-nya, – deya  
Javob qildi,  
O'ylab turib Suvilon.

– Xo'sh,  
"Makka" ning ruschasi-chi? –  
Savol berdi satang G'oz.  
– Quqquruza, quqquruza! –  
Deb qichqirdi yosh Xo'roz.

## KICHKINTOYLAR BOG'I

Mushuk uchar hayinchak,  
Quchog'ida – yosh Sichqon.  
Baqalarni qayiqda  
Sayr qildirar Karkidon.

Kiyikchani mindirib,  
Timsoh yurar emaklab.  
Tulki o'tdi yo'lakdan,  
Jo 'jalarni yetaklab.

"Oto'yin"da bir Laylak  
Aylantirar Ilonni...  
Faqat, Bo'ri baribir  
Quvlab yurar Quyonni.

## MUZ TOM

Bekor yotib Uloqcha,  
Juda sovqotdi.  
Chiqib muzli hovuzga,  
Yaxmalak otdi.

Baqa pastdan qichqirdi,  
Boqib muz romdan:  
– Teshib qo'yma, bezori,  
Qani, tush tomdan!

## **ORIYATLI MUSHUK**

Oriyatli Mushukman,  
Nafsimga bosh egmayman.  
“Ochko‘z” nomin olmay deb,  
Sut-qatiqqa tegmayman.

Burdim ketar deb, hatto,  
Quvlamayman Sichqonni.  
Kerak bo‘lsa, ishlating  
“Taxtamushuk” qopqonni.

Hidlamayman, mabodo,  
Go‘shtni ochiq qo‘ysangiz.  
Juda hursand bo‘lardim  
O‘zingiz yeb to‘ysangiz.

Mendek halol Mushukni  
Topish mumkin bemalol:  
Ana, plastilindan  
O‘zing darrov yasab ol.

## **ECHKI – ECHKI-DA**

Kostyum oldi Echkivoy  
Bashang,  
Sap-sariq.  
Guldor ko‘ylak tanladi,  
Kiydi ko‘k choriq.

Tuya uni tanimay,  
Dedi:  
– Iy, kimsiz?  
Nega kostyum kiyvolib,  
Yuribsiz shimsiz?

## KIM TUZATADI?

Quyonim bor – “vov-vov” der,  
Kuchugim bor – beda yer.  
Xo’rozim suvda suzar,  
Mushugim arqon uzar.

Tongda qichqirib: “quq qu-u”,  
Balig’im bermas uyqu.  
Eshagim poylar sichqon,  
Toshbaqam uchqur, chaqqon.

Toychog’im ko’p sustqadam,  
Yura olmas hech ildam.  
Tuxum bosar buzog’im,  
O’rdakkinam – suzog’im.

Kun-u tun hangrar echkim...  
Hoy, gapimdan kulgan kim?  
So’ylagan bo’lsam chatoq,  
O’zing to’g’ri ayt, o’rtoq.

## ESHAKNING ERTAGI

Bo'lgan ekan bir Xo'tik,  
Sho'x va qaysarroq.  
O'g'irlarkan qizlardan  
Ko'zgu va taroq.

Boqar ekan ko'zguga,  
Tarab yollarin.  
Hayron qilib yurarkan  
Echki-mollarni.

Ulg'ayib ham, uning hech  
Kirmabdi aqli.  
Egarlamoq bo'lishsa,  
Chiqibdi jahli.  
Olgan chog'i egasi  
Qamchini qo'lga,  
Dumin xoda qilgancha  
Qochibdi cho'lga.

Yozda maysa chaynabdi,  
Tomir yeb qishda.  
Ko'nikibdi, shu zayl,  
Yangi turmushga.

Uchratibdi bir kuni  
O'tinchi cholni.  
Oqsab yurgan emish u,  
Silab soqolni.  
Mindiribdi, rahm etib,  
Uni ustiga.  
Chol minnatdor boqibdi  
Yangi do'stiga.

Hozir ham u chol bilan  
Inoq ekan ja...  
O'sha Eshak, rost aysam,  
Menman... I-hah-ha!

## **ONA QUYON**

Onamni, uch akamni –  
G'ajidingiz, bu kammi,  
Qashqirlar?

Siz bois tun-saharda,  
Jonim doim xatarda,  
Qashqirlar.

Siz kuchlisiz, siz – ajal,  
Endi insof qiling sal,  
Qashqirlar.

Taniguncha olamni,  
Yeb qo'y manglar bolamni,  
Qashqirlar...

## BO'RINING TABIB BO'LGANI

Nelar bo'lmas jahonda,  
Yer go'yo ters aylandi.  
Tabiblikka  
O'rmonda  
Yirtqich Bo'ri joylandi.

Ana, qarang,  
Tish qayrab –  
O'tirar shum shifokor.  
Yo'lga boqar jovdirab,  
Tezroq kelsa deb bemor.

Keldi  
Ingrab Quyonvoy,  
Shalvirab ding qulog'i.  
Qadamlari poyma-poy,  
(Balki, tortmas oyog'i).

– Qani, o'tir,  
Hih-hih-hi...  
Darding nima, ayt, inim?  
– Bo'ri og'a, uch kunki,  
Tinmay og'rir biqinim.

Bo'ri yaqinroq jildi,  
Dono tutib o'zini.  
Biqin qolib,  
Tekshirdi  
Quyonning chap ko'zini:

– Kechikamiz, dingqulooq,  
Ko'rmasak tez chora gar.

Oshqozoning sal chatoq,  
Buni...  
“Tumov” deydilar.

Biz tabiblar bu dardni  
Juda yaxshi bilamiz.  
Dadilroq bo'l,  
Sen mardni  
Jarroh bo'lib tilamiz.

Qani, rozi bo'l shartta,  
Keyin rahmat aytasan.  
Omon qolsang,  
Albatta –  
Uyga tirik qaytasan.

Tikkalatib dumini,  
Qochib qoldi tez Quyon.  
Bechoraning biqini  
Og'rimas  
Shundan buyon.  
Keyin, og'rib tomog'i,  
Keldi yig'lab yosh To'ng'iz.  
Ushlab ko'rib oyog'in,  
Bo'ri dedi:  
– Voh, esiz!

Tomoq og'riq boshlanar  
O'ng oyoqning poyidan.  
Kesib olsak  
Soz bo'lar  
Go'shtlikkina joyidan.

Bo'ri

Tayyor deb o'lja,  
Yutar ekan so'lagin;  
Fursat poylab To'ng'izcha,  
Rostlab qoldi juftagin.

Keldi Tulki

Ming'irlab,  
Tikan kirib qo'liga.

(Bo'ri der: "Bu boshqa gap!"  
Uchrab go'shtning mo'liga).

– Uzr, do'xtir,

Keldim kech,

Juda chatoq ishlarim...

– Dard ko'rmaysan endi hech,  
Omon bo'lsa tishlarim!

– Kecha tunda

Uzoqdan

Tinglab shirin ovozin;

Tutib keldim qishloqdan,

Bir kampirning xo'rozin.

Yo'lda

Maraz bo'ztikan

Yaraladi qo'limni.

Og'rig'i ja zo'r ekan,

Bukchaytirdi belimni.

"Shoshmay turgin, muttaham!"

Der Bo'rivoy ichida.

– Ko'z tegmasin,

O'zing ham

Yetilibsan-da juda.

Mana, tugmadori ol,  
Beriroq kel,  
Jon ini...  
Xullas, Bo'ri bemalol  
Yedi-qo'ydi Tulkini

So'ngra  
Ochib bemorni  
Qabul qilish daftarin;  
Silab-siypab qornini,  
Yozdi ushbu gaplarni:

"Qo'lin tirnab bo'ztkan,  
Tulki keldi notetik.  
Ahvoli og'ir ekan,  
Chora topmadik...  
Yedik!"

Kechga yaqin kekkayib,  
Kirib keldi qari Sher.  
Bo'ri yetti bukchayib:  
"Xush ko'rdik,  
O, shohim!" – der.

Sher harsillab,  
O'zini  
Keng kursiga tashladi.  
Chaqchaytirib ko'zini,  
Darg'azab so'z boshladi:

– Yuray desang sog', quvnoq,  
Yaxshilab ko'r, akasi.  
Bir haftaki,  
Sal yo'qroq  
Ishtahamning mazasi.

Bo'ri dedi  
Qaltirab:  
– Gapisay, xo'p desangiz.  
Semirasiz yaltirab,  
Darmondori yesangiz.

Emchi o'tgan  
Yuz pushtim,  
Ular aytishgan har on:  
“Semiz hayvonning go'shti  
Darmonga qo'shar darmon”.

Turgandek tor qolipda,  
Tugatgach u gapini;  
Boqib  
Semiz tabibga,  
Sher yaladi labini:

– Yaxshi emas, har holda,  
Darmondori izlasam.  
Shoh bo'lsam-u,  
O'rmonda –  
Shoqoldek giz-gizlasam.

Qo'ldan bersam imkonni,  
So'ng yurarman armonda.  
Sendan semiz hayvonni  
Topish mushkul  
O'rmonda.

Qadrlayman men  
Har choq  
Shifokorlar so'zini.

Tatmoqchiman hoziroq  
Darmondori tuzini...

Sher tabibga tashlandi,  
Boqmay ohu zoriga.  
Bo'ri  
Birdan aylandi  
Oddiy darmondoriga.

Lekin  
Shunday keng o'rmon  
Tabibsiz qolsa – chatoq.  
Yig'ildi-yu bor hayvon,  
Kengashdi uzoq-uzoq.

Pokdil, tili biyronni  
Tanlaylik deb bu ishga,  
Yubordilar  
Quyonni  
Tabiblikka o'qishga.

## **BAHOR**

Shimol yoqqa qochdi qish bahoroydan zirillab,  
Iliq shamol janubdan kirib keldi gurillab.

Gullab yupun butoqlar, shona ochdi boychechak,  
Maysazorda yayrashar Chigirtkalar chirillab.

Shoshib uzoq o'lkadan qaytar qushlar galasi,  
Oldin keldi marraga Qaldirg'ochlar pirillab.

Keldi so'ngra Maynaxon Chug'urchiqqa ergashib,  
Faqat Qarg'a shimolga ketib qoldi jirillab.

Kezar dala-qishloqni kuylab daydi Hakkavoy,  
Yurar turli narsa yeb, tomog'i sal xirillab.

Ko'kqurt chiqdi tuxumdan, Pashshalarga kirdi jon,  
Qovog'ari uzoqqa uchib ko'rди dirillab.

Chaman bo'lib tog'larda ochilgan mish lolalar,  
Soz bo'lardi, Bulbuljon, borib kelsang g'irillab.

## **OLAMDA NIMA GAP?**

Qarg'a qo'shiq boshladi o'z vaqtini chog' qilib,  
Shoqol yig'lar, yakkalik yurak-bag'rin dog' qilib.

Zebra ola to'n bichar, Ayiq yuvar po'stinin,  
Pingvin qora shim tikar, kamzulini oq qilib.

Tabib bo'lib Echkivoy dori berar Qo'ziga,  
Otdan rahmat olibdi Toychoqni u sog' qilib.

Moyshishadan termilar durbin deya Quyoncha,  
Ranjitdi u oyisin oq ko'ylagin yog' qilib.

Tulkichaga qir aziz, To'ng'iz sevar to'qayni,  
Echkiemar sayr etar yantog'zorni bog' qilib.

Shinni yig'ib chechakdan uyga jo'nar Bolari,  
Qaytib kelar u yana xumchasini qoq qilib,

Bo'ri quvar Kiyikni, Bاليقني - och Chag'alay,  
Lochin kutar Maynani ko'zlarini zog' qilib.

Bulbul bitdi bu she'rin o'qisin deb Bulbullar,  
So'ylab yurmang Eshakka, toqatini toq qilib.

## MUSHUKLAR

Tezroq keling yuvvosh-u qaysar, baroq Mushuklar,  
Qoplon bilan Yo'lbarsga urug'-aymoq Mushuklar.

Ana, Jannat xolangiz sog'ib keldi sigirni,  
Birga-birga yalanglar sut-u qaymoq, Mushuklar.

Kuchukka ham ozgina bera qoling qizg'anmay,  
So'ng yashaysiz u bilan apoq-chapoq, Mushuklar.

Bor-yo'g'i besh harfni o'rganibsiz "miyov" deb,  
"Alifbe"dan sal ko'proq oling saboq, Mushuklar.

Qaymoq yalang, deganda juda xursand edingiz,  
Gap ochilsa o'qishdan, solmang qovoq, Mushuklar.

Mana, Bulbul do'stingiz sizga atab she'r yozdi,  
Bosilmasa bu she'rim, ishlar chatoq, Mushuklar.

## BEPUL TOMOSHA

Jonivorlar qishloqda sirk ochishdi kengashib,  
Tuya yemni chuqurdan olvolarmish engashib.

Yuguroqmish Qoramosh, bo'lar qiziq tomosha,  
Uni quvlar Kuchuklar Olaparga ergashib.

Pishiq yog'och oxurni Ot pachoqlar shattalab,  
Ma'rар dorvoz To'xlicha simyog'ochga tirmashib.

Polvon Buqa sultanib, uzib tashlar zanjirin,  
O'tar shovvoz Serkalar to'siqlardan sakrashib.

Ko'zboylag'ich Bo'taloq sim o'tkazar burundan,  
Kurash tushar Eshaklar qayish belbog' boylashib.

Epchil Buzoq bir paytda emar to'rtta Sigirni,  
Uloq oshar umbaloq, arg'amchiga chirmashib.

Qiziqchisi yo'q-ku deb Bulbul hayron turgan choq,  
Chiqib keldi Cho'chqalar betga balchiq surkashib.

## AJOYIBXONAGA MARHAMAT!

Ana qo'pol Begemot, burni qumg'onni ko'ring,  
Chaynab yotar tekin o't, Jiraf narvonni ko'ring.

Yegan kabi qalampir beti bujmoq, qarang bir,  
Og'zida tish yo'q "kampir" – Baqa shodonni  
ko'ring.

Shoxda karnay chaladi, to'ni ola-buladir,  
Nomi Hakka xoladir, gapi yolg'onni ko'ring.

O'tdan gulni ajratmas, ko'proq xashak yesa bas,  
Esi kirsa ajabmas, Xo'tik nodonni ko'ring.

Kamzulchasi ja tarang, kiyim-boshi ranggo-rang,  
Tumshug'i o'tkir, zarang, Jiblajibonni ko'ring.

Sher – narigi xonada, Shoqol nega panada?  
Kuch bo'lmasa tanada, zo'rda gumonni ko'ring.

Bo'rsiq so'rар barmog'in, Suvsar qashlar qulog'in,  
Qoplon charxlar tirnog'in, nafsi yomonni ko'ring...

Bulbul to'kin yoz chog'i ochdi jonzotlar bog'i,  
Qushlarning yo'q sanog'i, har xil hayvonni ko'ring.

## **JO‘JA - JIPJIPXO‘JA**

Yorib chiqdim tuxumni, shunday shovvoz Jo‘jaman,  
Tanib oldim buvimni, ko‘zi charos Jo‘jaman.

Har yon boqdim alanglab, don qidirdim jalanglab,  
Yurib ko‘rdim lapanglab, masxaraboz Jo‘jaman.

Qarang, dunyo yop-yorug‘, opalarim sap-sariq,  
Men qoraman va oriq, o‘ziga xos Jo‘jaman.

Chigirtkani qiraman, goh pashsha yeb ko‘raman,  
Nima topsam “uraman”, asl xo‘roz Jo‘jaman.

Kirib qolsa katakka, tegmayman yosh O‘rdakka,  
Yesa yeyar u makka, hammaga mos Jo‘jaman.

Yeb ko‘raman dumbuldan, kamchilik yo‘q ul-buldan,  
Qolishmayman Bulbuldan, shirin ovoz Jo‘jaman.

## YOZ

“O‘tin tashlab” quyoshga, o‘tni baland yoqdi yoz,  
Gurzailon qishdagi po‘stinidan kechdi voz.

Siyraklatib yungini tullay boshlar Tulkilar,  
Ortiqcharoq patlarin cho‘qib-cho‘qib yuldi G‘oz.

Kaklik bashang kiyindi yechib eski libosin,  
Uning chipor nimchasi tog‘ rangiga tushdi mos.

Xachir yotar soyada, dumi haydar Chivinni,  
Quyosh nurin yalamoq Mushuk uchun buncha soz?

Shod kavshanar Semizqurt, Chumakari baxtiyor,  
To‘rtko‘z ko‘cha changitib, tinmay chopar itga xos.

G‘uncha iliq, gul iliq, borliq iliq, dil iliq,  
Bu faslni, Bulbulvoy, qancha sevsang, shuncha oz.

## UYQU OLDIDAN

Shoshmang, shirin qushchalar,  
kavlab ko'ray cho'ntakni,  
Zora topsam sizlarbop biron yangi ertakni.

Yo'lbars ketib o'rmondan, shoh  
bo'lgan mish endi Fil,  
Tanlagan mish u kecha vazirlikka Chittakni.

Birinchi "A" sinfda Maymun uch yil o'qibdi,  
Yoqtirmayman, dermish u,  
ko'chib yurgan tentakni.

Pingvin paydo bo'lgan mish  
Oqtosh degan qishloqda,  
Kelgan mish u qutbdan ko'rmoq uchun Eshakni.

Arazlabdi Kitdan Bit, buzilgan mish oshnalik,  
Chayon esa o'ziga do'st qilgan mish Ko'ppakni.

Xo'kiz og'a qo'rqarmish bosqinchi sur Kanadan,  
Uxlagan payt eshikka sopqo'yarmish ilgakni.

Kimdir quyon teridan tiksa telpak va po'stin,  
Poylab yurib och Bo'ri yeb qo'ygan mish telpakni...

Endi uxlang, qushchalar, sizga posbon oymomo,  
Xullas, shoir Bulbuljon tamom qildi cho'pchakni.

## FE'L-ATVOR

Musichalar yuvvosh-u, Chumolilar tirishqoq,  
Suvaraklar bebosh-u, Kuchukchalar urishqoq.

Xo'tiklar zo'r yallachi, Ot, Sigirlar dalachi,  
Sho'x Qo'chqorlar kallachi, Takalar ham suzishqoq.

Laylak hatlar sayozda, semirvolay deb yozda,  
Qarg'a qo'rmas ayozdan, Qarqunoqlar qunishqoq.

Yosh jo'jalar g'irt garang, Tustovuqlar sal satang,  
G'ozlar qo'pol va tajang, Xo'rozchalar yulishqoq.

Bulbul jajji xonanda, Chigirkalar sozanda,  
Xachirga jom chirmanda, ikki yuzi burishqoq.

## KUZ

Dasturxonga fayz kirar o'lkamizda kuz bo'lib,  
Hamma tengdan kavshanar, mevalar "uz-uz" bo'lib.

Endi yong'oq qoqib yer ishbilarmon Hakkalar,  
Sharbat tashir anordan Arilar g'iz-g'iz bo'lib.

Yotar semiz oshqovoq barglarida yelpinib,  
Tilla rangli behioy boqar kulchayuz bo'lib.

Tarvuzlar tars yorildi, talashib yer Chumchuqlar,  
Pishdi anjir qand misol, sho'rtak olma – tuz bo'lib.

Hatto Kuchuk sakranib totib ko'rар uzumdan,  
So'ritokda husayni tovlanar yulduz bo'lib.

Chechak so'ldi, Bulbuljon, to'zar endi atirgul,  
Keyin paxta ochilgay kuz boboga qiz bo'lib.

## **QANDOLATCHI**

O'rmondagi sayldan topdi xabar Kenguru,  
Sotgan edi xo'rozqand o'tgan safar Kenguru.

O'ylab ko'rib, bu safar qilmoq bo'ldi nisholda,  
Ish yurishsa, endi ja boyib ketar Kenguru.

Biq qaynatib qozonda, chaqdi ukki tuxumin.  
Keyin uning ustiga soldi shakar Kenguru.

"Bir kosasi bir miri, kepqoling, zo'r nisholda!"  
Ozroq berib Quyonga, dedi "yetar" Kenguru.

Bir mirini berib Fil, qoqlab qo'ydi qozonni,  
Qozon – Filga kosadir, bilsa agar Kenguru.

Qandolatchi angrayib, changalladi kallasin,  
Sezdimki men – Bulbulbek, ko'rdi zarar Kenguru.

## KIMNING KO'NGLI NIMADA?

G'urrak tutni eslasa, tong otguncha izillar,  
Chumchuq qurtni eslasa, bog' ichida pizillar.

Qichqirganda yosh Xo'roz, eshitsa Qashqir bexos,  
Uyqusidan kechib voz, qishloq tomon g'izillar.

Xayol surib yotgan It sezib qolsa biron hid,  
Suyakka bog'lab umid, yurak-bag'ri jizillar.

Pashsha degan sur xola to'ygan bo'lsa sal chala,  
Bormi deb kirroq bola, tinim bilmay vizillar.

Pashshamasman, men – Bulbul,  
yoqtirganim faqat gul,  
Tushimga kirar nuqul pushti, sariq, qizillar.

## KIM NIMA DEYDI?

Shilliqurt der: “Epchilroqman Baliqdan ham,  
Eson-omon suzib o’tdim ariqdan ham”.

Zag’cha aytar: “Endi sira armonim yo‘q,  
Qurt yeyardim, totib ko‘rdim tariqdan ham”.

Tovus dedi: “Oq, ko‘k, qizil patlarim bor,  
Sotib oldim kecha pushti, sariqdan ham”.

Semiz Qo‘yga yem berishsa, ma’rar Taka:  
“Ba’zan xabar olinglar-da oriqdan ham”.

Tushuntirdi Ko‘rshapalak: “Tunda fayz ko‘p,  
Foyda yo‘qdir menga quyosh, yorug‘dan ham”.

Tishin kavlab, Bulbuljonga dedi Sichqon:  
“Mazaliroq narsa bormi choriqdan ham?”

## BADNAFS

Erta-yu kech loyni titar O'rdakburun,  
Chuvalchang va qurtlar tutar O'rdakburun.

Serbaraka bo'lib uning ovi bugun,  
Kulbasida mehmon kutar O'rdakburun.

Qarang, mehmon yeguncha bir chuvalchangni,  
O'zi beshta qurtni yutar O'rdakburun.

Mehmon aziz, avval uni siylash kerak,  
Kavshanma ko'p, endi yetar, O'rdakburun.

Oqil, sipo bo'lib, nafsin tiyolmasa,  
Bir kun o'zin badnom etar O'rdakburun.

Haddan ziyod yomonlama, Bulbul, uni,  
Yo'qsa seni qarg'ab o'tar O'rdakburun.

## **YUPANTIRISH**

Yig‘lar Mushuk shumshayib – It talab o‘tdi,  
Sigir uni yupatib, bir yalab o‘tdi.

Mehribonlik bilan Qo‘y siladi uni,  
Xachir zimdan ko‘z qisib, yo‘rg‘alab o‘tdi.

Sichqon azal xafaroq edi Mushukdan,  
Yuzin chetga o‘girib, orqalab o‘tdi.

Tovuq momo katakdan chiqdi qoqog‘lab,  
Qanotida yelkasin siypalab o‘tdi.

Ovuntirdi Bo‘taloq, ovuntirdi Toy,  
Echki esa qitiqlab, erkalab o‘tdi.

Bulbul qiziq qo‘schiqlar aytdi Mushukka,  
Eshak uni kuldirib, shattalab o‘tdi.

## MUNDARIJA

Polosonlik Anvar Obidjon.		Qalamning ruchkaga	
<i>Xudoyerberdi To'xtaboyev</i> .....	3	yozgan xati .....	15
Kalishning botinkaga		Kamonning zambarakka	
yozgan xati .....	5	yozgan xati .....	16
Atalaning lag'monga		Qaychining pichoqqa	
yozgan xati .....	6	yozgan xati .....	16
Ko'ztikonning kirpitikonga		Kirsovunning atirsovunga	
yozgan xati .....	6	yozgan xati .....	17
Ketmonning traktorga		Qayiqning kemaga	
yozgan xati .....	7	yozgan xati .....	18
Qahratoning saratonga		Vatan ishq'i .....	19
yozgan xati .....	7	To'tining talabalari .....	19
Qo'ranning qumg'onga		Xabar sotuvchi .....	20
yozgan xati .....	8	Birinchi maqtov .....	22
So'rg'ichning pufakka		O'zimnikini aytmayman .....	22
yozgan xati .....	9	G'allachining nevarasi .....	22
Po'stinning ayiqchaga		Bodringlar .....	23
yozgan xati .....	9	Mirsharif bekorchi .....	23
Sopolkosaning chinnikosaga		Osmondan tushgan sozanda ..	24
yozgan xati .....	10	Jalil janjalchi .....	25
Ko'zunguning oynakka		Dovdirvoy .....	26
yozgan xati .....	10	Ona yer .....	26
Varrakning samolyotga		Po'stak arava .....	27
yozgan xati .....	11	Qo'shtramvay .....	28
Pechkaning o'choqqa		Ertaklar .....	29
yozgan xati .....	11	Aka-ukalar .....	30
Eshikning darvozaga		Muzbaldoqlar .....	31
yozgan xati .....	12	Yaxshi qiz .....	31
Qutichaning sandiqqa		Suyunchi bering, oyi .....	31
yozgan xati .....	12	Saxiy lolalar .....	32
Uvadaning paxtaga		Maymoq .....	32
yozgan xati .....	13	Harbiy liseychilar .....	33
Shamning lampochkaga		Uchko'z chiroq .....	34
yozgan xati .....	13	Oymomoni o'g'irlash .....	34
Gugurtning chaqmoqqa		Atina patina tatuna .....	35
yozgan xati .....	14	To'ti nega qaysar? .....	36
Qazining kolbasaga		Mishavoy oshnam .....	37
yozgan xati .....	14	Ochqagan haydovchi .....	37
Qayroqning egovga		Tilov bobo .....	37
yozgan xati .....	15	Raqib hujumchisi .....	39
		Tabiat qorovuli .....	40

Og'a-ini janoblar.....	44	Yo'lak-chi?.....	60
Qiz yo'q uy .....	45	"Alifbe" dagi surat bo'yicha .....	60
Kichkintoy alpomish .....	46	Jon saqlash.....	60
Voy, ukacham-ey!.....	47	Ikki "ayg'oqchi".....	60
Fermerning o'g'ilchasi.....	47	Egizak chaqaloqlar.....	61
Quvnoq chol .....	48	O'yinchog'im qani?.....	61
Shamol kuylamoqda.....	49	Polvon ukam.....	61
Odam bo'laman! .....	50	Hali o'zim bolaman-ku .....	61
Laqma laycha va tulkicha .....	51	Sirmi boy bermay .....	62
O'qituvchining o'gitlari.....	52	Shu ham filmi?.....	62
Yangi avlod.....	53	Taqilloq etik .....	62
Do'mboqchalar dunyosi.....	54	Jajji beka .....	62
Yem qordik.....	54	Baliqchining ashulasi .....	62
Velosiped buzilganda .....	54	Qizilgul .....	62
Aka-uka.....	54	Bugun – bayram .....	63
Badnafs donishmand .....	54	Kulchalar .....	63
Ochofat .....	55	Ayoz .....	63
Oromgohda .....	55	Suvonqul .....	63
Taxta qopqon .....	55	Jasurlik .....	63
Yarim tonna o'yinchoq .....	55	Qaysinisi shirinroq? .....	64
Parishonxotir .....	55	Yuvoshga maza .....	64
Uni tanib qo'ying.....	56	Kim ranjitdi? .....	64
Dengizda .....	56	Kemachanining ustasi .....	64
Kezaman, yozaman .....	56	Esdalik .....	64
Otasining qizi .....	56	Qatirmaxo'r .....	64
Qochmagin, xo'pmi? .....	56	Boshdan o'tgan-da .....	65
Tanib qo'ying .....	56	Aqlular kirgach .....	65
Sinchkov bola .....	57	Qochqoq .....	65
Quvlash-quvlash .....	57	To'g'ri taqsimladikmi? .....	65
Oshqovoq .....	57	Hidlashga balo bormi? .....	66
Pechak o't .....	57	Ortig'ini sotamiz .....	66
Qayoqqa yuray? .....	57	Isiriq .....	66
Bahoroyning ashulasi .....	58	Yordamchi topiladimi? .....	66
Paxta va chigit .....	58	Buzg'unchi .....	66
Atlasmakon .....	58	Oqibat .....	66
Arslonbob .....	58	Ayyor .....	67
Yamamay qo'yaqoling .....	58	Mug'ambir .....	67
Chaqqon qiz .....	58	Lofchi .....	67
Serobgarchilik .....	59	Aldoqchi .....	67
Cho'ponning o'g'li .....	59	Mehribon .....	67
Latifa ishqibozi .....	59	Mehmondo'st .....	68
Kampirlar .....	59	Ochiqko'l .....	68
Qoraqamish .....	59	Yebto'ymas .....	68
O'zini tanimadi-ya .....	60	Odamovi .....	68
Keyin bo'lishamiz .....	60	Bahonachi .....	68

Pismiq .....	68	Bahonachilar kasalxonasi .....	80
Tanti .....	69	Quyoshni qarshilash.....	81
G'iybatchi .....	69	Rostgo'ylik.....	82
Andishali .....	69	Eski to'pponcha .....	83
Firkchan .....	69	Vahimachi .....	84
Hisobdon.....	69	Chittak xola .....	84
Mezbon .....	69	Mashhur to'polonchi.....	85
Nasihatgo'y.....	70	Ohuchaning onasi .....	86
Xudbin .....	70	Geografiya darsida.....	87
Havas qil .....	70	Zo'ravonlik .....	88
Ko'ngil yaqin bo'lsa.....	70	Navbat bilan .....	88
Ertak .....	70	Pardozchi .....	89
Bozorchilar .....	71	Aybsiz aybdor .....	90
Ishtaha .....	71	Ondatra.....	91
Pahlavoncha .....	71	Sobiq vahshiy.....	92
Panadan turib.....	71	Pandavaqqi .....	92
Ixtiyor o'zidami? .....	71	Taxir sovg'a .....	93
G'olib .....	71	Yirtqich .....	94
Notanish maqtanchoq .....	72	Ajoyibxonqa .....	95
Quyoshning maktubi .....	72	Onaning jasorati.....	97
Chiyab'o'rilar ashulasi .....	72	Chet tili .....	98
Suv nega oqadi? .....	72	Kichkintoylar bog'i.....	99
Qish kelyapti .....	72	Muz tom .....	99
Ho'kizning vasiyati .....	73	Oriyatli mushuk .....	100
Kasbini qo'msaganda .....	73	Echki - echki-da .....	100
Xavfli yo'lovchi .....	73	Kim tuzatadi? .....	101
Adi-badi .....	73	Eshakning ertagi .....	102
"Shudgorda quyruq yotganmish..." .....	73	Ona quyon .....	103
Chumoli .....	74	Bo'rining tabib bo'lgani .....	104
Quyonning tug'ilgan kunida .....	74	Bahor .....	110
Kemiruvchi .....	74	Olamda nima gap? .....	111
Och raqqos .....	74	Mushuklar .....	112
Boquvdagi ot .....	74	Bepul tomosha .....	113
Ana xolos! .....	74	Ajoyibxonaga marhamat! .....	114
Ko'lmakda .....	75	Jo'ja - jipjipxo'ja .....	115
Do'st bo'lmay ket! .....	75	Yoz .....	116
Do'l savalaganda .....	75	Uyqu oldidan .....	117
Yirtqichlikka ishqiboz .....	75	Fe'l-atvor .....	118
Hammomdagi mojaro .....	76	Kuz .....	119
Bebosh .....	78	Qandolatchi .....	120
Bo'richaning mehribonligi .....	79	Kimning ko'ngli nimada? .....	121
Chetdan qaraganda .....	79	Kim nima deydi? .....	122
Buyuk xayolparast .....	79	Badnafs .....	123
		Yupantirish .....	124

*Adabiy-badiiy nashr*

ANVAR OBIDJON

**G'ALATI MAKTUBLAR**

*She'rlar*

Muharrir

Madina MAHMUDOVA

Musahhih

Sunnat MUSAMEDOV

Badiiy muharrir

Dilfuza SOLIXO'JAYEVA

Texnik muharrir

Umidbek YAXSHIMOV

Kompyuterda sahifalovchi

Dildora JO'RABEKOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2017-yil 27.03 da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 8,0. Sharqli bosma tobog'i 13,44.

Garnitura "AGSouvenirCyr". Ofset qog'oz'i.

Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 79\092.

Bahosi kelishilgan narxda.

"Yangi asr avlodi" NMMda tayyorlandi va chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Kitob matni «Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi.

100097, Toshkent sh., Bunyodkor shohko'chasi, 44.

**Murojaat uchun telefonlar:**

Nashr bo'limi – 147-00-14, 129-09-72.

Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87; faks – 273-00-14;  
e-mail: yangiasravlodi@mail.ru



Bolaga atab yozilayotgan asarni ovqat deb faraz qilsak, o'ta issiq bo'lsa, og'izni kuydiradi; o'ta sovuq bo'lsa, ichakni shamollatadi. Ammo, ikkovidan ham xavflirog'i – butkul bemazasi, bitta tuzi past asar bolani kitobdan umrbod bezitib tashlashi hech gapmas. Bolalarga bag'ishlab yozishda kichkintoylar tushunchasidan, ularning o'ziga xos atvordan, odmigina fikrlashlaridan, shiringina, soddagina gaplashuvlari doirasidan ortiqcha uzoqlashib ketmaslikka riosa qilish talab etiladi. Eng qiyini mana shuni uddalashdir. Bolalarning tabiatiga yot kitob bolalarga qo'shilib "o'ynolmaydi".

**O'QISH VAQTI:**  
**120 daqiqa**



ISBN 978-9943-27-973-5



9 789943 279735